Annotatsiya: Fuqarolik huquqi-bu shaxslar o'rtasidagi mulk , shartnomalar, meros shaxsiy huquqlar va majburiyatlar kabi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy soha. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar- bu shaxslar va tashkilotlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar bo'lib, ular asosan mol-mulk shartnoma va boshqa ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Jamiatning rivojlanishi bilan bu munosabatlar murakkablashib, turli xil muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada fuqarolik- huquqiy munosabatlarda keng uchraydan muammolar va ularning yechimlari haqida so'z yuritamiz.

Abstract: Civil law is a legal field that regulates relations between individuals such as property, contracts, inheritance, personal rights and obligations. Civil-legal relations are legal relations between individuals and organizations, which mainly regulate property, contracts and other social relations. With the development of society, these relations become more complicated and cause various problems. In this article, we will talk about common problems in civil-legal relations and their solutions.

Аннотация: Гражданское право – это правовая область, регулирующая отношения между физическими лицами, такие как имущество, договоры, наследование, личные права и обязанности. Гражданско-правовые отношения – это правоотношения между физическими лицами и организациями, которые регулируют главным образом собственность, договоры и другие общественные отношения. С развитием общества эти отношения усложняются и вызывают различные проблемы. В этой статье мы поговорим о типичных проблемах в гражданско-правовых отношениях и их решениях. Аннотация: Гражданское право – это правовая область, регулирующая отношения между физическими лицами, такие как имущество, договоры, наследование, личные права и обязанности. Гражданско-правовые отношения – это правоотношения между физическими лицами и организациями, которые регулируют главным образом собственность, договоры и другие общественные отношения. С развитием общества эти отношения усложняются и вызывают различные



проблемы. В этой статье мы поговорим о типичных проблемах в гражданско-правовых отношениях и их решениях.

Kalit so‘zlar: Fuqarolik, huquq, mulk, sud, neusto‘yka, notarial, bir darcha, konstitutsiya, arbitraj, mediatsiya, shartnama, meros, davlat, qonun, jamiyat.

Key words: Citizenship, law, property, court, neustoyka, notary, one-stop shop, constitution, arbitration, mediation, contract, inheritance, state, law, society.

Ключевые слова: Гражданство, право, собственность, суд, неустойчивка, нотариус, единое окно, конституция, арбитраж, посредничество, договор, наследование, государство, право, общество.

Kirish: Fuqarolik-huquqiy munosabatlar har bir insonning kundalik hayotida muhim ahamiyatga ega. Ular mulk, mehnat, oilaviy aloqalar, shartnomalar, meros va boshqa turli masalalar bo‘yicha huquq va majburiyatlarni belgilaydi. Ushbu munosabatlar huquqiy asosda tartibga solinmasa, ijtimoiy nizolar yuzaga kelishi va jamiyatda tartibsizliklar vujudga kelishi mumkin. Shu sababli fuqarolik-huquqiy munosabatlarning qonuniy va adolatli asosda tashkil etilishi nafaqat shahsiy manfaatlarni himoya qilishda, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim ro‘l o‘ynaydi.

Biroq, bugungi kunda ushbu sohada muayyan muammolar mavjud bo‘lib, ular fuqarolarni o‘z huquqlarini to‘liq amalga oshirishda to‘siqlar yaratmoqda. Ayniqsa, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudsarning samaradorligi, qonunlarni amalda qo‘llashdagi kamchiliklar va huquqiy savadxonlikning pastligi kabi masalalar dolzarb hisoblanadi, Ushbu muammolarni chuqur tahlil qilish va ularga yechim topish jamiyatning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

Asosiy qism: Fuqarolik huquqiy munosabatlarida uchraydiga muammolar.

1. Shartnomaviy majburiyatlarning bajarismasligi;

Shartnoalar fuqarolik- huquqiy munosabatlarining asosiy shakli hisoblanadi. Ko‘pincha tomonlar shartnama shartlarini buzadi, masalan;

Mol mulkni o‘z vaqtida yetkazib bermaslik;

To‘lojni kechiktirish yoki to‘liq amalga oshirmaslik;

Xizmatlarni sifatli taqdim etmaslik.

Muammo sabablari:

Shartnama matnining aniq va to‘liq tuzilmasligi;

Tomonlarning qonunchilikdan yetarlicha xabardor emasligi;

Sud tizimining sekin ishlashi.

2. Mol-mulk bilan bog‘liq nizolar:



Mol- mulkka egalik qilish va undan foydalanishda nizolar ko‘p uchraydi.
Masalan.

Mulkiy huquqni buzish;

Qonuniy meros huquqlarining e’tibordan chetda qolishi;

Noturar joylar va yer uchastkalari bilan bog‘liq mojarolar.

3. Fuqrolik madaniyatning pastligi.

O‘z huquq va majburiyatlarini bilmaslik ko‘plab muammolarning ildizi hisoblanadi. Ko‘pincha shaxslar qonuniy tartiblarni buzib, o‘zlarini muammo ichiga tushirib qo‘yadi.

Fuqarolar o‘z huquqlarini himoya qilish usullarini bilishlari kerak. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 11-moddasi berilgan;

Fuqarolik huquqlari quyidagi yo‘llar bilan himoya qilinadi;

Huquqni tan olish. huququz buzilishidan oldingi holatni tinglash va huquqni buzadiga yoki uning buzilish xavfini tug‘diradigan xarakterlarning oldini olish;

Bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash; Davlat organining yoki fuqarolarning hujjatini haqiqiy emas deb topish;

Shaxsning o‘z huquqini o‘zi himoya qilishi;

Burchni aslicha bajarishga majbur qilish;

Neusto‘yka undirish;

Ma’naviy ziyonni qoplash huquqiy munosabatini bekor qilish yoki o‘zgartirish;

davlat organining yoki fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish otorganining qonunga zid hujjatni sudning qo‘llamasligi;

Fuqrolik huquqlari qonunda nazarda tutilgan boshqa usullar bilan ham himoya qilinishi mumkin.

4. Sud ishlaring cho‘zilishi:

Fuqarolik-huquqqiy nizolarning sud orqali hal qilinishi ko‘p vaqt va mablag‘ talab qiladi. Bu fuqrolarning o‘z huquqlarining huquqiy himoya qilishdagi ishonchini pasaytiradi.

1. Elektron xizmatlarning yetarli emasligi:

Raqamlashtirish jarayoning sustligi fuqarolarning huquqiy xizmatlardan foydalanishini cheklaydi. Bu ayniqsa chekka hududlarda kuchli seziladi.

Muammolarning yechimlari:

1. Shartnomaviy nizolarni oldini olish

Shartnomalarni huquqiy mutaxasis yordamida tuzish; Bu kelishuvni aniq va qonuniy qiladi.



Elektron shartnoma tizimlarini rivojlantirish; Bu tomonlar o‘rtasidagi shaffoflikni oshiradi va nizolarni kamaytiradi.

Shartnomani buzganlik uchun jiddiy javobgarlikni kuchaytirish; Bu tomonlarning majburiyatlarini bajarishga undyadi.

2. Mol-mulk nizolarining oldini olish

Mol-mulkka oid huquqlarni raqamlashtirish; Notarial xizmatlar va davlat reystrlari orqali mulka oid barcha huquqiy ma’lumotlarni elektron bazaga kiritish nizolarni kamaytiradi.

Meros huquqi bo‘yicha tushintirish ishlarini olib borish; Aholi o‘z huquqlarini bilish va qonuniy yo‘l bilan himoya qilishi mumkin.

3. Huquqiy madaniyatni oshirish.

Huquqiy savodxonlikni targ‘ib qilish dasturlari; Maktab, oliv ta’lim va ommaviy axborot vositalri orqali aholiga huqiy bilim berish.

Huquqiy maslahat markazlari ochish; Barcha fuqarolar uchun bepul maslahat berish tizimini yo‘lga qo‘yish.

4. Sud tizimini isloh qilish;

Sud jarayonlarini tezlashtirish; Elektron sud arizalar qabul qilish tizimini kengaytirish.

Fuqarolik sudyalar sonini oshirish; Bu sud ishlarini o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini ta’minlaydi.

Mediatsiya va abitraj tizimini rivojlantirish; Nizolarni sudga yetkazmasdan hal qilish imkonini beradi.

5. Elektron huquqiy xizmatlarni rivojlantirish;

“Bir darcha” tizimini kengaytirish; Barcha huquqiy xizmatlarni bitta platforma orqali taqdim etish.

Hududlarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish; Chekka hududlardagi aholining huquqiy xizmatlardan foydalanishini ta’minalash.

Agar fuqarolar o‘zlarining shaxsiy huquq va erkinliklarini yaxshi bilsalar muammo va nizolar kamayad. Jumladan konstitutsiyamizning 26-moddasida;

Insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas. Hech kim qiyonoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkun emas. Hech kimda uning roziligidiziz tibbiy va ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas.



Xulosa:

Ushbu maqoladan mening chiqargan xulosam shuki fuqarolik-huquqiy munosabatlar jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Ushbu munosabatlarda yuzaga keladigan muammolarni yechish uchun davlat, fuqarolar va huquqiy tashkilotlarning hamkorligi zarur. Sharhnomalar tuzishda ehtiyyotkorlik, mulk huquqlarini himoya qilish, sud tizimini isloh qilish va huquqiy savodxonlikni oshirish bu boradagi asosiy vazifalardir. Faqat shu yo‘l bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlar tartibli va adolatli bo‘lishi mumkin. O‘ylaymanki har bir fuqaro o‘z huquq va erkinliklarini bilsa va shularga amal qilib yashasa jamiyatda va insonlarning shaxsiy hayotida nizolar va kamayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “O‘zbekiston” Toshkent-2023
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi “Toshkent” 2024
3. Davlat funksiyasi; (M.Najimov, Sh. Saydullayev)
4. Davlat va huquqning umumnazariy muammolari (Z.Islomov)
5. Fuqarolik jamiyati asoslari (A.Jalilov, U.Muhammadiyev)
6. Fuqarolik huquqi darslik. Toshkent 2021
7. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.01.2019 yildagi PF-5618-son.



YANGI O`ZBEKISTON BARQAROR TARAQQIYOT GAROVI SIFATIDA

Iskandarova Oqiljon Shavkat qizi

*Andijon davlat pedagogika Instituti ijtimoiy gumanitar fanlar
va san'at fakulteti Milliy g`oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi
yo`nalishi 2-bosqich talabasi*

Annatatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda olib borilayotgan istohotlar yangilanishlar haqida so`z boradi . Yurtimiz taraqqiyotida o`z oldiga qo`ygan starategik maqsadlar, va ularni amalga oshirishga qaratilgan g`oyalar ,takliflar bayon etilgan . 2022-2026-yillarga mo`ljalangan taraqqiyot strategiyasi haqida ham so`z yuritilgan .

Synopsis: this article talks about the istohotah updates being carried out in our country. The strategic goals set for the development of our country, as well as the ideas and proposals aimed at their implementation, are described. The development strategy for 2022-2026 was also discussed.

Сводка: в этой статье рассказывается об обновлениях истохот, проводимых в нашей стране. Описаны стратегические цели, поставленные перед развитием нашей страны, а также идеи и предложения, направленные на их реализацию. Также обсуждалась стратегия развития на 2022-2026 годы.

Kalit so`zlar: Taraqqiyot ,glabalashuv ,strategiya , demokratik, jamiyat, davlat, istohot , sessiya , modda, konsututsiya, partiya, tadbirkor, huquq, iqtisodiyot , axloq.

Key words: Development, globalization, strategy, democratic, society, state, will, session, article, constitution, party, entrepreneur, law, economy, ethics.

Ключевые слова: Развитие, глобализация, стратегия, демократия, общество, государство, воля, сессия, статья, конституция, партия, предприниматель, закон, экономика, этика.

Kirish

Bugungi glabalashuv davrida o`z kelajagiga taraqqiyotiga befarq bo`limgan mamlakatlar , albbata o`z oldiga yuksak huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati har jihatdan taraqqiy etgan kuchli davlat buniyoda etish maqsadini qo`ygan.

Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Taraqqiyotga faqat mashaqatli va jasoratli mehnat orqali



erishiladi''. O`zbekistonda ham bugungi kunda ko`plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Vatanimiz shu kungacha ko`plab mashaqatli davrlarni boshdan kechirga og`ir kunlarni va ko`plab davonlarni oshib o`tib shu kungacha yetib kelgan . Bugungi taraqqiyotga erishishda birinchi prezidentimiz Islom Abdug`aniyevich Karimovning hissasi beqiyos .

Ko`p mimg yillik taraqqiyot yo`lini bosib o`tgan va o`tmishida katta tarixiy siljishlar bilan birga tanazzular va inqirozlarga guvoh bo`lgan o`zbek xalqi hayotida 20-asrning oxiri 21-asrning boshlari muhum axamiyat kasb etadi.Ana shu davrda xalqimiz yaratgan buyuk bunyotkorliklar, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va ma`naviy sohadagi yutuqlar O`zbekistonning bundan keying uzoq kelajakga mo`ljalangan taraqqiyotiga asos bo`lib xizmat qiladi. Ushbu davrning mohiyati butunlay yangi tuzum, yangicha turmush tarzi zamonaviy jahon sivilizatsiyasi talablarizga javob bera oladigon aqliy salohiyat, intelektuval imkoniyat bilan bog`liqligi muhim axamiyatga ega. Xususan 2017-2021-yillarda mamlakatning rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi strategiyasi qabul qilingan. Strategiyani qabul qilinishdan asosiy maqsad dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o`rganish qonunchilik huquqini muhofaza qilish amaliyoti xorijiy tajribani tahlil qilish bo`yicha ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda ”Harakatlar strategiyasidan –”Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili ishlab chiqildi.Bu quydagi yetta ustuvor yo`nalishdan iborat. 2022-2026-yillarga mo`ljallangan .

- Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqorolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalq parvar davlat barpo etish;

- Mamlakatimizdaadolat va qonun ustuvorligini tamoyillarni taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish ;

- Milliy iqtisodiyotning jadal rivojlantirish va yuqori o`sish suratlarini taminlash;

- Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish ;

- Ma`naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;

- Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;

- Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatining kuchaytirish ,ochiq pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Ko`rinib turibdiki yangilanayotgan O`zbekistonda yangicha qonunlar farmonlar qabul qilinmoqda .



Shuni inobatga olish keraki, 2015-yilda BMTga a'zo davlatlar 2030-yilgacha mo`ljallangan barqaror rivojlanish dasturin qabul qilgan. O`zbekistonda ham Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo`yicha Milliy maqsada va vazifalar muvaffaqiyat bilan amalda tadbiq etilmoqda. BMTning O`zbekistonndagi doimiy muofiqlashtiruvchisi Helena Frezerning e'tiroficha, O`zbekistonning joriy yil iyulida BMTning Oliy maqom siyosiy forumiga taqdim etgan Barqaror rivojlanish maqsadlari bo`yicha ilk ixtiyoriy milliy islohoti shu payitgacha erishilgan olg`a siljishning shuningdek, mamlakatning “Kun tartibi -2030” ni amalgalashuvning qatnashishni tavsiflovchi ishtiroki va maslahatlashuviga asoslanga yondashuvning chin ma’nodagi islohati bo`ldi. Shunindek Freyzer xonim BMT bosh Asambleyasining joriy sessiyasida O`zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev tamonidan ilgari surilgan tashabuslar BMT maqsadlari bilan hamohangligini ta’kidladi.

O`zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Biznes sub’ektlariga berilayotgan imtiyoz va yengilliklar sababli bu tarmoq o`zinig iqtisodiyotimizdagi o`ta muhim va salmoqli hissasi bilan davlatimiz va jamiyatimiz taraqqiyotida tobora muhim o`rin egalamoqda. Ushbu sohada hayotga tadbiq etilayotgan istohatlar natijasida minglab oilalarga baraka kiryapdi, yuz minglab yangi ish o`rnlari yaratilyapdi. Tadbirkorlik rivojlansa, jamiyatda o`zgarishlar rivojlanishlar bo`ladi, odamlar hayotdan ko`ngli to`lib, ruhi ko`tarilib yangi -yangi marralarga intiladilar.

Konstitutsiyamizga ham o`zgartirishlar kiritildi. 2023-yil 30-aprelda yangi tahrirdagi konstitutsiya kuchga kirdi. Unga ko`ra 6 bo`lim 27 bob 155 moddadani iborat etib belgilandi. 71-moddada ta’kidlanishicha “Konstitutsiyaviy tuzumni zo`rlik bilan o`zgartirishni maqsad qilib qo`yuvchi, O`zbekistonning davlat suverenitetiga, hududiy yaxlitligiga va xavfsizligiga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy hamda diniy adovatni targ`ib qiluvchi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga, aholining sog`lig`ga, ijtimoiy axloqiga tajovuz qiluvchi siosiy partiyalarning, boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarning, shuningdek, milliy va diniy belgilariga ko`ra siosiy partiyalarning, harbiylashtirilgan birlashmalarning tashkil etilishi va faoliyati taqiqlanadi. Mahfiy jamiyatlar va birlashmalarning tashkil etish taqiqlanadi” deb aytib o`tilgan.

Xulosa: Mamlakatimiz taraqqiyot yo`lidan yangi-yangi cho`qqilar sari qadam qo`yar ekan ,biz yashayotgan zamon sur’atlari shiddat bilan tezlashib ,oldimizda yanada ko`plab mashaqqatlar,muommolarni yengib o`tish kerak. Shunday ekan biz yoshlardan sergak bo`lishimiz, Vatanimiz taraqqiyoti uchun o`z hisamizni qo`shishimiz



lozim. Yangi O`zbekiston tamiyillari xalqning o`z kuchiga bo`lgan ishonchini mustahkamlash, milliy qadriyatlarni rivojlantirish va barqaror taraqqiyot sari intilish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Ushbu yo`nalishdagi sa`y harakatlar mamlakatimiz kelajagi porloq va barqaror bo`lishiga ishonch uyg`otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi Toshkent- 2023 41-bet
2. O`zbekiston tarixi Toshkent-2018 3-4-bet
3. Yuksak manaviyat yengilmas kuch Toshkent-2016.
4. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev so`zlaridan.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QONUNLARI IJROSI USTIDAN JAMOATCHILIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISH

Rajabboev Bahromjon Bobomurod o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB
Yunusobod tumani IIO FMB huzuridagi Tergov bo'limi
tahlil va nazorat bo'linmasi tergovchisi katta leytenant*

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazoratini tashkil etishning konstitutsiyaviy-huquqiy, ilmiy-nazariy va amaliy asoslari, xalqaro huquq normalarining hamda qonunlarning bajarilishi ustidanjamоatchilik nazoratining shakllantirilishi va rivojlantirilishi bayon qilinadi. O'zbekistonda jamoatchilik nazorati va monitoringini amalga oshirishning shart-sharoitlari va imkoniyatlari, jamoatchilik nazoratining maqsadlari, prinsiplari va sub'ektlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: jamoatchilik nazorati, huquqiy norma, xalqaro huquq, prinsip, sub'ekt, qonun.

Annotation

This article describes the formation and development of constitutional-legal, scientific-theoretical and practical foundations of the organization of public control in the Republic of Uzbekistan, the formation and development of economic control over compliance with international law and the execution of laws. Special attention is paid to the conditions and possibilities of public control and monitoring in Uzbekistan, the goals, principles and subjects of public control.

Keywords: public control, legal norm, international law, principle, subject, law.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali majlisda qilgan ma'rzasidan "Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak va bu haqiqatni, avvalo, barcha bo'g'indagi rahbarlar yaxshi tushunib olishi zarur" deb bejizga ta'kidlab o'tmaganlar. Bu hozirgi davrda aynan isbotini topib turgan masaladir.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoev "Afsuski, hozirgi kunda qonunlarning islohotlar samarasiga ta'siri yetarlicha sezilmayapti. Ularning



ijtimoiy munosabatlarni bevosita tartibga solishdagi roli pastligicha qolmoqda” deb ta’kidladi. Jamoatchilik nazorati qonunga amal qilinishi ta’minlanishiga, davlat organlari tomonidan o‘z vazifalarini mas’uliyat bilan va malakali bajarishlari imkonini beradi. Jahan tajribasi jamoatchilik nazorati ham jamiyat, ham davlat hokimiyati uchun manfaatli ekanligini ko‘rsatadi. Haqiqatan ham bu davlatni mas’uliyatli bo‘lishga - qonun amal etishini ta’minlashga, insonning huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish va himoya qilishga, demak umumiy manfaat yo‘lida samarali ish olib borishga majbur qiladi.

Jamoatchilik nazorati davlatga ham o‘zining muttasil takomillashishini rag‘batlantirish uchun manfaatlidir. **Birinchidan**, jamoatchilik nazorati davlat xizmatchilarining davlat hokimiyatining tabiat tufayli ularga hamisha xos bo‘lgan nohuquqiy qarorlar va ish ko‘rishlardan tiyilib turishiga da’vat etdigan ta’sirchan kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Jamoatchilik nazoratining bosimi tufayli mansabdor shaxslar o‘z faoliyatiga o‘zgartirishlar kiritadi, mas’uliyatliroq va natijada malakaliroq bo‘lishadi. **Ikkinchidan**, jamoatchilik nazorati jamiyatning hokimiyat bilan aloqa qilish vositasi sifatida namoyon bo‘lib, fuqarolarga mamlakatning maqsadlari va rivojlanish ustuvorliklari to‘g‘risida hokimiyat bilan halol va ochiq muloqot olib borishga yordam beradi. Davlat hokimiyati jamiyat bilan bunday o‘zaro aloqa qilish yordamida mavjud muammolardan xabardor bo‘ladi va fuqarolarning mamlakatda demokratik islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan talablarini qo‘llab-quvvatlaydi. Uchinchidan, jamiyat ta’siri ostida davlat samaraliroq ish olib boradi, bu bilan jamoatchilik nazorati fuqarolarning davlatga ishonchini va uni qo‘llabquvvatlashlarini ta’minlaydi. Jamoatchilik nazorati vakolatli hokimiyat fuqarolarning konstruktiv takliflari asosida mamlakatda zarur islohotlarni o‘tkazishiga yo‘naltirilgan. Hozirgi paytda davlat va fuqarolarning bir-biriga qarshi turgan - boshqaradigan va boshqariladigan an’anaviy modeli O‘zbekistonda besamar ekanini amalda ko‘rsatdi. Butun jahonda bo‘lgani kabi fuqarolik jamiyatni institutlari tomonidan nazorat qilish funksiyalarini amalga oshirish ko‘zda utiladigan davlat boshqaruvinu takomillashtirish zarurati angvana boshlandi. Bunday tendensiya turli darajalarda o‘z ifodasini topmoqda. Buning uchun “Ochiq hukumat” tizimi yaratilmoqda. Jamoatchilik tashkilotlari siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar-madaniy muhitning faol ishtirokchilariga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Yana bir inkor etib bo‘lmaydigan haqiqat borki, fuqarolarda ham islohotlarga nisbatan daxldorlik hissi shakllanishi kerak. Ana shundagina ko‘zlagan maqsadlarga erishib, oldimizga qo‘yilgan vazifalarning to‘liq uddasidan chiqamiz. Bu jarayonda



kuchli va ta'sirchan jamoatchilik nazoratining o'rni beqiyosdir. Bu jarayonda kuchli va ta'sirchan jamoatchilik nazoratining o'rni beqiyosdir. Shu maqsadda kelgusi yildan boshlab "Jamoat fikri" portalini ishga tushirishga qaror qildik. Hammamiz yaxshi tushunamiz, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari g'oyat muhim o'rin tutadi. Men ommaviy axborot vositalari faoliyatini muntazam kuzatib boraman. Lekin, afsuski, islohotlar mohiyati, qabul qilinayotgan qonun va qarorlar ijrosi bilan bog'liq muammolar, aholi murojaatlari yuzasidan gazeta, tele va radiokanalarda tanqidiy maqola, ko'rsatuv va eshittirishlar juda kam".

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish monitoringi bo'yicha mustaqil institut tadqiqotlariga ko'ra, keyingi 4 yil davomida so'rov o'tkazilgan NNTlarning 72% da normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari jamoatchilik muhokamasida ishtirok etgan. NNTning faollari 40 tadan ko'proq faoliyat olib borayotgan davlat rahbari va hukumat qarorlariga muvofiq tashkil etilgan respublika idoralaro komissiyalari, kengashlari, ishchi guruhlarining a'zolari hisoblanadi. NNT va davlat organlarining birgalikda tadbirlarni tashkil etishlari keng ommalashmoqda. Bunda ana shunday tadbirlarni o'tkazishning tashabbuskorlari ko'proq nodavlat notijorat tashkilotlari (71%) bo'lmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan 85 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasining jamoatchilik ekspertizasi o'tkazilib, ularni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha tegishli organlarga amaldagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha 1320 ta taklif taqdim etilgan. 4,6 mln. dan ko'proq odam NNTning ish bilan bandlikni ta'minlash, yoshlar va ayollarga axborot, uslubiy, ta'lim va boshqa xizmatlaridan, shuningdek, aholining eng nochor tushunchalariga ruhiy va moddiy yordam ko'rsatishlaridan foydalangan.

Jamoatchilik nazoratini huquqiy tartibga solishning zarurati quyidagi holatlar bilan bog'liqdir. Jamoatchilik tashkilotlari nazoratni amalga oshirar ekan, vakolatlari va faoliyat olib borishlarining tartibi qonunchilik bilan belgilanadigan davlat boshqaruvi organlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishadi. Nazorat qilishning ushbu shakli sub'ektlarining nazorat ostidagi ob'ektlar bilan o'zaro munosabatlarida jamoatchilikning boshqaruv apparati faoliyatiga ixtiyoriy "bostirib kirishi" tufayli uning ishini izdan chiqarishlariga yo'l qo'ymaslik uchun huquqiy normalar bilan tartibga solinishi kerak. Zero, jamoatchilik tuzilmalarining davlat apparatiga ta'sir o'tkazishi mansabdor shaxslarning topshirilgan ish uchun mas'uliyatini oshirishi, ammo davlat organlarining funksiyalarini jamoatchilik tashkilotlari tomonidan noqonuniy ravishda o'zlashtirmasligi, ularni kamsitmasligi kerak. Huquqiy tartibga solish nazorat faoliyatini puxta tashkil etish uchun ham zarur: nazorat ishida



parallellikka va bir-birining ishini takrorlashga yo‘l qo‘ymaslik uchun huquq normalari yordamida davlat va jamoatchilik nazoratining sohalari chegaralanadi.

Jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonunchilikni shakllantirish ikki yo‘nalishda: **birinchidan**, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish; **ikkinchidan**, jamoatchilik tashkilotlarining nazorat funksiyalarini tartibga soladigan yangi qonunlar qabul qilish orqali olib borilmoqda. Bu ishda jamoatchilik nazorati va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning chet el tajribasi diqqat bilan o‘rganilmoqda.

Hozirgi paytda davlat organlarining qonunchilik tomonidan belgilab qo‘yilgan chegaralarda jamoatchilik fikriga bog‘liqligining mexanizmlari va tartiblari yaratilmoqda. Qonun davlat organlarining faoliyati jamoatchilik ehtiyojlari va manfaatlariga muvofiqligini baholash mezoniga aylanmoqda, shuningdek, jamoatchilik fikri tomonidan amalga oshiriladigan nazoratning hajmi, mazmuni oqibatlarini belgilab bermoqda. Nazorat huquqiga davlat organlarining jamoatchilik fikri tomonidan bildirilayotgan mulohazalari va takliflariga javob berishlari majburiyati mos tushadi. Bugungi kunda huquqiy tartibga solishning ko‘philik sohalarida jamoatchilik nazoratining zarurati va muqarrarligidan dalolat beradigan huquqiy baza mavjuddir. Respublikaning qator normativ hujjatlari bevosita jamoatchilik nazorati sub’ektlarining faoliyatini tartibga solishga bag‘ishlangan.

Jamoatchilik nazoratining asosiy usuli qonunchilik buzilishining oldini olish va huquqbuzarlarni tarbiyalashdir. Shu maqsadlarda tekshirishlar, jamoatchilik reydlari va ko‘rikлari, yig‘ilishlar, kengashlar, anjumanlarda mansabdor shaxslar ma’ruzalarining muhokamasi, jamoatchilik takliflari bajarilishini tekshirishlar o‘tkaziladi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi, jamoatchilik ta’sirini o‘tkazish choralar qo‘llaniladi va hokazolar. Bu ish to‘g‘risida radio, matbuot va televidenie orqali axborot berish katta ahamiyatga egadir. Jamoatchilik nazorati uchun huquqbuzarliklarning oldini olish, tushuntirish va tarbiyaviy yo‘nalish xosdir.

Jamoatchilik nazoratini o‘tkazish ko‘nikma larini egallash va samarali natijalarga erishishda fuqarolik jamiyatni institutlari tomonidan davlat organlari faoliyati ustidan amalga oshiriladigan nazoratning tushunchasi, maqsadlari, vazifalari va prinsiplarini aniq anglab yetish muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, jamoatchilik nazorati inson huquqlarining jamoatchilik himoyasi shakllaridan biri hisoblanib, u O‘zbekiston Respublikasi qonunchiliga amal etilishi monitoringini o‘tkazish orqali davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga inson huquqlari va erkinlik lari buzilishini



aniqlashda yordam berish bo'yicha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, OAV, bevosita fuqarolar va davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlarining faoliyatidir. Bu jamoatchilik va davlat organlari birgalikda O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarining davlat tizimiga kiradigan organlar faoliyatida Konstitutsiya va qonuniylik ustunligi prinsipini amalga oshirishga yordam beradigan ijtimoiy sheriklikning eng samarali shakllaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/6445147>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligi tantanali marosidagi nutqi. <https://archive.qalampir.uz/news/shavkat-mirziyoevning-konstitutsiyaning-24-yilligi-tantanali-marosimidagi-maruzasi-5011>
3. O'zbekiston Respublikasining «Jamoatchilik nazorati to'g'risida» gi O'RQ- 474 - son qonuni 12.04.2018 yilda qabul qilingan. <https://lex.uz/docs/3679092>
4. O'zbekiston Respublikasi «Ichki ishlar organlari to'g'risida» gi Qonuni, 16.09.2016 yilda qabul qilingan O'RQ - 407-son. <https://lex.uz/docs/3027843>
5. Qonun hujjatlari milliy bazasi.



PERSONAL BOSHQARISHDA LOYIHAVIY USULLARDAN FOYDALANISHNING AVZALLIKLARI

Shakirov Elyor Boribayevich

*Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik
oliy maktab magistri*

Annotatsiya: Maqolada boshqaradigan va boshqariladigan tizimlar, boshqarish sub'yekti va ob'yektining o'zaro munosabati qonuniyat ekanligi boshqaruva sohasining boshqaruv ob'yekti talablariga muvofiqligini bildiradi. Bu esa ushbu maqolada o'rin olgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha va maktab ta'limi, boshqaruv, rahbarlik faoliyati, ta'lim tizimi, boshqaruv tashkiloti

Kirish

Bugungi kunda tashkilotlar va kompaniyalar o'z faoliyatlarini samarali va muvaffaqiyatli yuritish uchun innovatsion boshqaruv usullarini joriy etishga intilmoqda. Shundan biri – personal boshqarishda loyihaviy usullardan foydalanishdir. Loyihaviy boshqaruv usullari an'anaviy boshqaruv tizimidan farq qiladi va ularning asosiy maqsadi ma'lum bir vazifani yoki natijani amalga oshirish uchun resurslarni boshqarishdir. Personalni boshqarishda loyihaviy usullarni qo'llash tashkilotlarga ko'plab afzalliklar keltirishi mumkin. Ushbu maqolada personal boshqarishda loyihaviy usullardan foydalanishning afzalliklari haqida batafsil so'z yuritiladi.

1. Resurslarni samarali taqsimlash

Loyihaviy boshqaruv usullarida, har bir loyiha uchun aniq maqsadlar va natijalar belgilab olinadi. Bu esa personalni boshqarishda resurslar, vaqt va kuchlarni to'g'ri taqsimlash imkonini beradi. Loyihaviy tizimda tashkilot rahbariyati har bir xodimning vazifalarini aniq belgilab, ular uchun kerakli resurslarni taqdim etadi. Shuningdek, loyihaviy usul har bir xodimning malakasi va tajribasiga mos ravishda ishni taqsimlashga yordam beradi. Natijada, xodimlar o'z ishlarini aniq va samarali bajarishadi, bu esa kompaniyaning umumiyligi samaradorligini oshiradi.

2. Xodimlarning motivatsiyasini oshirish

Loyihaviy boshqaruvda har bir loyiha yakuniy natija uchun javobgar bo'lgan jamoalar tomonidan amalga oshiriladi. Bu esa xodimlarga o'zlarining jamoaviy ishlarini va yakuniy natijalarini yaxshilashga rag'batlantiradi. Xodimlar loyiha



davomida o'z rollarini to'liq tushunib, o'z ishlariga javobgar bo'lishadi. Loyihalarga alohida e'tibor va jamoa ishslashga katta urg'u berish, xodimlarning motivatsiyasini oshiradi va ularni yaxshiroq ishslashga ilhomlantiradi.

3. G'oyalar va innovatsiyalarni rag'batlantirish

Loyihaviy boshqaruv usullari har bir loyiha uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va xodimlarga innovatsiyalarni sinab ko'rish imkoniyatini beradi. Har bir loyiha yangi g'oya va tashabbuslar bilan keladi, bu esa xodimlarni ijodkorlikka undaydi. Tashkilotda turli loyihalar doirasida yangi yondashuvlar va yangiliklarni joriy etish imkoniyati xodimlarning o'zgarishlarga tez moslashishini va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishlarini ta'minlaydi. Bu jarayonda xodimlarning malakasini oshirish, ularning yangi texnologiyalar va usullarni o'zlashtirishiga yordam beradi.

4. Tezkor qarorlar qabul qilish va moslashuvchanlik

Loyihaviy boshqaruvda qarorlar tez va samarali qabul qilinadi, chunki loyihalar aniq muddatlar va maqsadlar asosida amalga oshiriladi. Agar loyiha jarayonida kutilmagan muammolar yoki o'zgarishlar yuzaga kelsa, rahbariyat va jamoa tezkor qarorlar qabul qilishga tayyor bo'lishadi. Loyihaviy usul, shuningdek, kompaniyaning o'zgaruvchan bozor sharoitlariga tez moslashishiga yordam beradi. Xodimlar va rahbariyat yangi vaziyatlarga moslashib, o'zgarishlarga javob berish uchun kerakli choralarни ko'radi, bu esa tashkilotning raqobatbardoshligini saqlab qoladi.

5. Xodimlarning o'sishi va rivojlanishi

Loyihaviy boshqaruvda xodimlar turli vazifalarni bajarishadi, bu esa ularning ko'nikmalarini va bilimlarini kengaytiradi. Har bir loyiha doirasida xodimlar yangi vazifalar bilan yuzma-yuz kelishadi, bu esa ularga yangi tajriba orttirishga yordam beradi. Boshqalar bilan hamkorlik qilish, loyiha boshqaruvi, muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish xodimlarni shaxsiy va professional rivojlanishiga turki beradi. Shuningdek, loyihalar orqali xodimlar o'zlariga yangi imkoniyatlar ochib, keljakdagi yuqori lavozimlarga tayyorlanishadi.

6. Jamoaviy ishni rivojlantirish

Loyihaviy boshqaruvning yana bir afzalligi jamoaviy ishni rivojlantirishdir. Loyihalar turli sohalardagi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi, bu esa xodimlarning o'zaro hamkorlik qilishini talab qiladi. Turli ko'nikmalar va tajribalarga ega bo'lgan jamoalar samarali ishslashni ta'minlash uchun bir-birini to'ldiradi. Bunday muhit xodimlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikni kuchaytiradi, bu esa o'z navbatida tashkilotdagi ishning samaradorligini oshiradi. Jamoaviy ish xodimlarga



o'zlarining qobiliyatlarini boshqalar bilan bo'lishish va umumiyligiga maqsadga erishish imkoniyatini beradi.

7. Natijadorlik va samaradorlikni oshirish

Loyihaviy boshqaruvda har bir loyiha aniq maqsadlar va o'lchovli natijalarga yo'naltirilgan. Loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun barcha harakatlar belgilangan muddatga va resurslarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bu tashkilotning natijadorligini oshiradi, chunki loyhaviy boshqaruvda resurslar samarali ishlataladi va har bir ishning natijasi aniq baholanadi. Loyihaviy boshqaruv usullarining samaradorligi va natijadorligi kompaniyaning raqobatbardoshligini oshiradi va uzoq muddatda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Xulosa

Personal boshqarishda loyhaviy usullardan foydalanish tashkilotlarga ko'plab afzalliklar keltiradi. Resurslarni samarali taqsimlash, xodimlarning motivatsiyasini oshirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish, tezkor qarorlar qabul qilish, xodimlarning o'sishi va rivojlanishi, jamoaviy ishni rivojlantirish va natijadorlikni oshirish kabi afzalliklar loyhaviy boshqaruvning asosiy tamoyillaridir. Tashkilotlar va kompaniyalar ushbu usullarni o'z faoliyatida qo'llab, muvaffaqiyatga erishishlari mumkin. Loyihaviy boshqaruvning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi kompaniyaning umumiyligini oshiradi va uni kelajakdagi raqobatbardoshlikni ta'minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M.—Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash— yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. T.:—O'zbekiston, 2017. 48 b. 2. Voroshilova L.L Inovatsionnaya Vorooshilova Л.Л. Инновационная педагогическая деятельность: понятийный анализ //Проблемы педагогического образования. Сб. научн. ст.; Вып. 21/Подред. В.А. Сластенина, Е.А. Левановой. - М., 2005. 3. Дроздов И.Н. Управление изменениями и организационная культура. Владивосток, 2002 4. Сейтхалилов Э.А., Тожиев М. Педагогическая технология: опыт практического применения и системно-содержательного анализа



MILLIY TARBIYANING ETNOMADANIY XUSUSIYATLARI

Abduvohidova Ruxshona Doniyorbek qizi,

Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi

E-mail: ruxshona01062005@gmail.com

Tel: +998931021725

Ilmiy rahbar: Zoxid Madraximov

NamDU, Tarix kafedrasи dotsenti, t.f.n.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya tushunchasi, tarbiya va milliy tarbiya, millatlararo totuvlik g'oyasi va boshqa davlatlar bilan bog'liqligi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'z: Milliy tarbiya, kommunistik mafkura, millatlararo totuvlik g'oyasi, millat, "Yaponcha milliy ruh", Hind kasta-varnaları.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'rildigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyatni ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi [2].

Pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlataladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televide niye va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi.

Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didining o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila, tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki



ta’lim va ma’lumot olish jarayonida shaxsning nafaqat bilimi ko‘payibgina qolmay, balki axloqiy-ma’naviy sifatlarining qaror topishi ham tezlashadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a’zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o‘sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma’naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma’naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko‘rsatadigan tarbiyaviy intizomlar tizimiga ega bo‘lishi lozim.

Tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izohlab kelingan. Sho‘ro zamonida hukmron kommunistik mafkura tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda tarbiya faqat sinfiy xususiyatga ega bo‘ladi va turli sinflarning tarbiyasi bir-biriga qarama-qarshi turadi degan qarash qaror topgan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o‘zbek xalq pedagogikasi tajribasi tarbiyaning sinfiy ko‘rinishga ega emasligini isbot etdi. Shuningdek, kommunistik mafkura ta’ziqi tufayli tarbiyada ijtimoiy muassasalarning o‘rniga ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irsiy va biologik xususiyatlar deyarli xisobga olinmadи.

Sho‘rolar davrida tarbiya orqali har qanday odamni istagan ijtimoiy qiyofaga solish mumkin degan qarash hukmron bo‘lganligi sababli ham uning shaxsni shakllantirishdagi o‘rniga oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsining tarbiyaga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga mahliyo bo‘lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida tarbiya maqsadsiz bo‘lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo‘nalishga solinishi mumkin bo‘lgan qiyofasiz to‘da, olomon tarzida qarash qaror topdi, Bu hol tarbiyaning samarasizligiga olib keldi. Chunki tarbiyaning asosiy obyekti bo‘lmish shaxs va uning o‘ziga xoslik jihatlari unutilgan edi. Sho‘ro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga borib taqaladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiya va unga bog‘liq jarayonlarga yangi hamda sog‘lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g‘ayriilmiy sinfiy-partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Tarbiyaning milliyligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, o‘zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari



sinchikovlik bilan o'rganilayapti. Natijada, O'zbekiston pedagogikasi fani va amaliyotida oila tarbiyasining ham, ijtimoiy tarbiyaning ham o'ziga xos o'rni borligi tan olina boshlandi. Shuningdek, tarbiyada irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo'ldi. Ayni vaqtda, shaxsning shakllanishida tarbiyaning o'rniga keragidan ortiq baho berish ham barham topdi. Bu hol tarbiyaga doir hodisa va holatlarni to'g'ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to'g'ri tayin etish imkonini berdi [2].

"Tarbiya" va "Milliy tarbiya" tushunchalari bir-birini inkor etmagan holda, balki bir-birini to'ldirib keladi. "Milliy tarbiya" asrlar davomida, o'zidan hech nimasini yo'qotmay balki, boyib kelgan, xalqimizning milliy qadriyatidir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Tarbiya – bu umumiy tushuncha. Milliy tarbiya – esa boshqa etnoslar tarbiyasidan farq qiluvchi, milliy qadriyatdir. Jonajon Vatanimiz O'zbekiston ham uzoq o'tmishdan to hozirgi kungacha milliy tarbiya ruhini o'zida saqlab, uni boyitib keldi. Ko'hna tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, yurtimiz hududida juda ko'p millat va elat tinch-totuvlikda, ahil va inoq yashaganlar. Hozirgi kunda ham O'zbekiston ko'p millatli davlat hisoblanib, uning hududida 130 dan ortiq millat va elat istiqomat qiladi. Bunda millatlararo totuvlik g'oyasi bosh masaladir.

Millatlararo totuvlik g'oyasi – umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joyda tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Millatlararo totuvlik g'oyasi tushunchasini to'laroq va kengroq izohlashdan avval "millat" so'zini tushgunib olishimiz darkor [1. – B.145.].

Millat – (lotincha, - natio - millat) til, ma'naviyat, milliy o'zlikni anglash ruhiyati, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi, iqtisodiy aloqalar bilan bog'langan, shuningdek, odatda o'z davlatiga ega bo'lgan hamda mustaqil subyekt sifatida o'ziga xos moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchi kishilarning ijtimoiy barqaror birligi.

Millat insoniyat mavjudligi sharoitida hech qachon o'lmaydi, o'zga millatlar bilan o'zaro qo'shilib ham ketmaydi, balki takomillashib, rivojlanib borish asosida o'zining ichki ruhiy salohiyatida mavjud bo'lgan yangi qirralarini namoyon qilib boradi. Milliy taraqqiyot zaminida uning jahondagi ko'plab millatlar uchun xizmat qilishi mumkin bo'lgan turli sohalaridagi o'ziga xoslik asosida umummilliyl va umuminsoniy salohiyati shakllanib, rivojlanib boradi [1. – B. 145].

Tarbiyaning shakllanishida etnomadaniy xususiyatlar ham ta'sir etadi. Etnomadaniyat o'z mohiyati va xususiyatiga ko'ra inson hayoti, faoliyatining va ijtimoiy borliqning barcha tomonlari bilan bog'liq polifunksional hodisadir. Shuning



uchun u bevosita yoki bilvosita falsafiy fanlar, madaniyatshunoslik, tarix, etnografiya, san'atshunoslik, pedagogika, iqtisod, ijtimoiy boshqarish, psixologiya, ma'naviyat asoslari kabi ilm sohalarida tadqiq etib kelinadi [3. – B. 90.].

Milliy tarbiya asrlar davomida shakllanib kelgan. Uning shakllanishida qo'shni va qardosh xalqlar tarbiyasining ma'lum darajada ta'siri bor. Har bir xalqning o'ziga xos va mos bo'lgan milliy tarbiysi bor. Masalan, "Yapon tarbiysi"ni olaylik, Yaponiyada bolalarga tug'ilganidanoq "Yaponcha milliy ruh"ni singdirishadi. Ularda Vatanni sevish, imperatorga sadoqat va bir qancha g'oyalar birinchi o'rinda turadi. Hindistonning milliy tarbiyasida esa kasta (tabaqa)lar birinchi o'rinda. Yangi tug'ilgan chaqaloqning taqdirini ota-onasining qaysi tabaqaga mansubligi hal qiladi. Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston davlatlari azaldan qon va jon birligi asosida yashaganliklari bois milliy tarbiyasida ham bir qancha o'xshashlik va uyg'unliklar mavjud.

Xulosa qilib shuni aytolamanki, milliy tarbiya inson hayotining ajralmas bir bo'lagidir. Tarbiya o'z-o'zidan bor ham, yo'q ham bo'lib ketmaydi. Tarbiyaning qay darajada tarkib va rivoj topishi kishilarga, kishilik jamiyatiga bog'liqdir. Inson bu dunyoga kelib to ketguniga qadar u bilan birga bo'ladi. Lekin tarbiya hammaga ham birdek berilmaydi. Yaxshi hulqli tarbiyalar bo'lgani singari yomon hulqli tarbiya ham bor aslida. Chunki bu dunyo ibtidosi yaxshilik va yomonlikdan iborat-ku! Albatta, yaxshilik bor joyda yomonlik ham bo'ladi. Yaxshi hulqli tarbiyani o'zimizga singdirishimizda, iymon va qalb go'zalligi muhimdir. Ruhimiz pok, qalbimiz uyg'oq, iymon-e'tiqodimiz va irodamiz mustahkam ekan, jamiyatga foyda keltiradigan go'zal tarbiyali shaxs bo'lib yetishamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. G'apparov E. "Etnomadaniyat" moduli papkasi. – Namangan, 2023.
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarbiya>.
3. Academic Research in Educational Sciences. Volume3. Issue 11. 2022./
<https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-etnomadaniyatining-o-ziga-xos-xususiyatlari/viewer>.



DARVESH HUKMDOR YOHUD AMIR SHOHMUROD

Abduvohidova Ruxshona Doniyorbek qizi

Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi

E-mail: ruxshona01062005@gmail.com

Tel: +998931021725

Ilmiy rahbar: Zoxid Madrahimov

NamDU, Tarix kafedrasи dotsenti, t.f.n.

Anotatsiya: Ushbu maqolada, o'zbeklarning mang'it urug'idan bo'lган qudratli va taniqli Buxoro amiri Shohmurod shaxsiyati, uning hukmronligi davrida amirlikda amalga oshirgan islohotlar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Doniyolbiy, amir, tariqat, tasavvuf, mujaddidiya-naqshbandiya suluki, murshid, irrigatsiya, "Amiri Ma'sum", tarxonlik yorlig'i, tushmol.

Аннотация: В этой статье представлена информация о личности Шахмурада, могущественного и выдающегося бухарского эмира из узбекского клана мангытов, его реформах, проведенных в эмирата во время его правления.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Даниелбий, Амир, тарикат, суфизм, муджаддиия-накшбандийский Сулук, Муршид, ирригация, "Амири невинный", Тарханский ярлык, тушмал.

Anotation: This article details the personality of the powerful and prominent Bukharan Emir Shahmurod, a Manghit of the Uzbeks, about the reforms carried out in the emirate during his reign.

Keywords: Emirate of Bukhara, Danielbiy, amir, tariqat, sufff, mujaddidiya-naqshbandiya suluki, murshid, irrigation, "amiri Ma'sum", tarkhanate label, tushmol.

O'zbeklarning mang'it urug'i o'zbek davlatchiligi tarixida o'chmas iz qoldirgan. Mang'it sulolasidan chiqqan barcha hukmdorlar tarix zarvaraqlarida o'z o'rinaliga ega. Shulardan biri – amir Shohmurod boshqa mang'it amirlaridan o'zining adaolatliligi, taqvodor hukmdorligi bilan ajralib turadi.

Shohmurod 1741-yil Buxoroda Muhammad Doniyol xonadonida tavallud topgan. U oilada to'ng'ich farzand bo'lgan. Yoshligida otasi uni Begijon deb erkalatgan. Muhammad Doniyolbiy otaliq Buxoro xonligini boshqarishni boshlagan vaqtida Shohmurod 17 yoshga to'lgandi. Shohmurod o'zining ziyrakligi, alohida qobiliyatları bilan 11 ta ukasidan alohida ajralib turgan. Shohmurodning ilm-fanga ishtiyobiq baland bo'lib, uning tarbiyasi bilan otasi ham jiddiy shug'ullangan. Yoshligida bir necha yil Mir Arab madrasasida tahsil olgan. Shohmurod farosatlari, aqlli va taqvodor bo'lib voyaga yetisha boshlaydi. U shariat va tariqatni puxta o'rganadi. Shohmurod tariqatda mujaddidiya-naqshbandiya sulukida edi. Boshqa ilmlar qatori tasavvuf ta'limoti bilan jiddiy shug'ullanib, o'zi ham madrasada dars



beradi. Shohmurod ona tili turkiy-o‘zbek tilidan tashqari arabcha va forschani ham yaxshi bilgan. So‘fiyona turmush tarzi uning hayotiga aylangan edi [5].

Shohmurod yoshligining katta qismini valiaxd shahzoda sifatida Qarshida o’tkazgan. Bu uning kelajakdagi siyosiy qarashlarining ma’naviy ijrosini o‘ziga xos tarzda shakllanishiga xizmat qilgan. Bunga sabab qilib, o‘sha paytlarda Qarshida yashagan mujaddidiya-naqshbandiya tariqatining mashhur vakillaridan biri, So‘fi Olloyorning shogirdi va jiyani – Xalifa Jonmuhammad Ko‘lobiyning (shayx Ko‘lobiyning) nasihatlari, o‘gitlarini tinglab, uning duosini olishga musharraf bo‘lgani ko‘rsatiladi. Shayx bo‘lajak amirni tariqatga ilhomlantirgan birinchi murshidi bo‘ladi. Amir Shohmurodda dunyoga oddiyoq qarash, xalq ichida ular kabi yashash tarzi Jonmuhammad Ko‘lobiyning suhbatlaridan keyin boshlanib ketgan. Kelajakda Muhammad Shohmurod Jonmuhammad Ko‘lobiyning Bibi Otun ismli nevarasiga uylanadi [5].

Amir Shohmurodning 3 nafar rafiqasi bor edi. Ulardan, Shamsiyabonu binti Abulfayzxon – shahzoda Amir Haydarning onasi. Amir Haydar esa to’ng’ich farzand. Bibi Otun binti G’ani mahdum – undan Mir Husayn va Bibi Robia dunyoga kelgan. Mir Husayn amirning kenja o‘g’li edi. Uchinchi xotininining nomi hozirgacha ma’lum emas. U Barot to’qsobaning qizi edi. Barot to’qsoba amir Shohmurodning otasi Doniyolbiyning ukasi edi. Undan Dinnosirbek tug’ilgan. Mazkur shahzoda Marv shahri hokimi bo‘lgan. Uning yana bir qizi bo‘lib, nomi ma’lum emas [1. – B. 147.]

Amir Shohmurod (1741 – 1800) “Amiri Kabir”, “Amiri Ma’sum”, “Amiri G’oziy”, “Amiri Jannatmakon”, “Amiri Valiy” va “Ikkinch Umar” kabi faxrli nomlar bilan ulug’langan.

Shohmurod Buxoro amiri Doniyolbiy otaliq 75 yoshida vafot etgach, 1785-yil 10-iyunda Buxoro davlati hukmdori bo‘ladi [1. – B. 146.]. U dastlab markaziy hokimiyatni mustahkamlash ishiga qat’iy bel bog’laydi. Ishni sulola mavqeini rasmiy jihatdan mustahkamlashdan boshlaydi. Ya’ni soxta xonlik an’analariga chek qo’yib (Doniyolbiy paytida ham ashtarxoniylardan Abulg’oz rasman xon hisoblangan), taxtga rasman o’zi chiqadi, lekin xon emas, amir unvoni bilan. Shu vaqtadan boshlab davlatning ham rasmiy, ham amaliy boshlig’i uning o’zi – amir hisoblangan [3. – B. 281.].

Shohmurod taxtga o’tirgandan so’ng “amir” unvoni bilan hokimiyatni boshqaradi. U o’z hukmronligi davrida shaharlar taraqqiyoti va obodonchiligiga, irrigatsiya va qishloq xo’jaligi rivojiga alohida ahamiyat beradi. Tarixda “Amiri Ma’sum” (“Begunoh amir”) nomi bilan qolgan amir Shohmurod o’z davrida markaziy hokimiyatni mustahkamlashga erishadi. Uning hukmronligi davrida mamlakatni mustahkamlashga yo’naltirilgan 4 ta muhim islohot – moliya, sud, ma’muriy va harbiy islohotlar o’tkazildi. Avvalo, 1758-yildan boshlab amirlikda to’la holatda (aralashmalarsiz) kumushdan iborat bo’lgan kumush tangalar, oldingilaridan o’zining qiymati, sifati va tashqi ko’rinishi bilan farq qiladigan sof



tilla tangalar zARB etila boshlandi. U davlat zarbxonalarida aholining o'z shaxsiy jamg'armalaridan olib kelgan kumush va oltindan bir xil o'lchamdag'i kumush va tilla tangalarni zARB qilishga keng ruxsat berdi [4. – B. 339.].

Amir Shohmurod o'tkazgan islohotlar ichida davlat boshlig'ining unvoni o'zgartirilishi ham diqqatga sazovordir. Yuqorida qayd etilganidek, Shohmurod turkiy xalqlarda udum bo'lib kelgan xonlik unvonida voz kechib, amirlik unvonini oldi. Ushbu o'zgarish Buxoroning Islom davlati, uning hukmdori esa musulmonlar amiri ekanligiga hamda otasi Doniyolbiy xon emas, otaliq mansabida bo'lganligiga ishora edi. Amir Shohmurod joriy etgan bu unvонни so'nggi mang'it hukmdorlari 1920-yilgacha qo'llab keldilar.

Amir Shohmurod soliqlardan ezilgan xalqning harakati kuchaygan vaqtда taxtga o'tirganligi uchun ham birinchi islohotni soliqlarni tartibga solishdan boshladi. Butun Buxoro shahri aholisiga tarxonlik yorlig'i berib, o'zidan avvalgi hukmdorlar joriy qilgan, shariatga to'g'ri kelmaydigan yorg'u, boj, tarx, tushmol, yasoq kabi soliqlarni bekor qildi.

Amir Shohmurodnинг sud islohoti ham diqqatga sazovordir. Unga ko'ra, har bir musulmon, hatto qul ham qoziga o'z shikoyati bilan kelishga va g'ayriqonuniy ish qilayotgan o'z xo'jayinini javobgarlikka tortishga haqli edi. Bu qoida o'sha vaqtdagi Buxoro amirligidagina emas, butun Turkiston davlatlarida sudlovni ijobiliylashtirish uchun tashlangan katta qadan bo'ldi. Bundan tashqari, 40 a'lamdan (qonunshunoslardan) iborat oliy sud (qozixona) palatasi tuzildi. Uning a'zolari shariat huquqi asosida amir Shohmurodnинг o'zi tuzib bergan to'plamni qo'llariga olib, arz va shikoyatlarni hal etishda unga qarab ish ko'radigan bo'lganlar [2. – B. 207.]. Shunday qilib, amir Shohmurod davrida Buxoro amirligida yangi sud tizimi: qasaba, tuman, viloyat qozilari, bosh qozi hamda qirq a'lam sudi vujudga kelib, eng oliy qozi amirning o'zi edi. Shariat huquqi asosida Shohmurod tuzgan qoidalar to'plami diqqatga sazovordirki, uni izlab topish va ilmiy jamoatchilikka yetkazish olimlarimiz oldidagi vazifalardan bo'lib turibdi.

Amir Shohmurod amalga oshirgan ishlari ichida eng kattasi Samarqand shahrining qayta tiklanishi bo'ldi. Eron shohi Nodirshohning XVIII asr o'rtalaridagi bosqini, yetti yil davom etgan o'zaro urushlar hamda qalmoqlar zulmidan qochib, mol chorvalari bilan Turkistonga ko'chib kelgan qozoqlarning vohalarga joylashib, ularni talon-taroj qilishlari bir qancha shahar, qishloqlar hayotini izdan chiqarib yubordi. Jumladan, Samarqand shahri huvillab qoldi. 1752-yillarda shaharda jon egasi qolmagan edi. Mang'it hukmdorlaridan birinchisi bo'lgan Muhammad Rahimbiy otaliq Ravotxo'ja bandini tuzatib, shaharga suv oqizgan bo'lsa-da, odamlar yo'qligidan shahar jonlanib ketmadi.

"Samarqandning hozirgi obodonchiligi, – deb yozgan edi S.Ayniy bu haqda, – 1780-yil ya'ni Shohmurodbiyning bekligidan boshlangan bo'lib, 1809-yillarda bir shahar yo'siniga kirgizildi". Bu amir Shohmurodnинг aholini ko'chirib joylashtirish siyosati bilan bog'liq edi. Buning natijasida, O'ratega, Xovos, Kattaqo'rg'on, Termiz



va boshqa yerlardan aholining Samarqandga majburiy ko'chirib keltirilishi shaharning rivojlanishiga sabab bo'ldi [2. – B. 208.].

Amir Shohmurod o'zi idora etib turgan markazlashgan davlat tizimini yanada mustahkamlash sohasida ko'p ishlar qildi. Uning davrida ham amirlikda bir necha urug'lar va ayrim viloyatlarning noroziliklari sodir bo'lib turgan edi. Xususan, 1786-yilda Karmana sarhadi aholisi Buxoro amirligiga bo'y sunishdan bosh tortgan. Amir Shohmurod Karmana aholisini bo'ysundirish uchun bir necha marta yurish qilishga majbur bo'gan. Karmanadan so'ng itoat etmay qo'ygan Shahrисабз va Xo'jandga qilingan yurishlar muvaffaqiyat bilan yakunlangan [4. – B.340.].

Mamlakatda amalga oshirilgan islohotlar va muvaffaqiyatli harbiy harakatlar natijasida amirlik ancha markazlashib, qudrati oshgan. Natijada, amir Shohmurod qo'shni Afg'onistonga ham harbiy yurish uyushtirgan. Xususan, Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi ilgarigi Buxoro yerlarini qaytarib olish uchun Afg'on amiri Temurshohga qarshi harbiy yurish qiladi. Bu urushlardan so'ng Shohmurod va Temurshoh o'rtaida sullh tuzilib, Amudaryo har ikkala davlat o'rtaсидаги chegara deb belgilanadi [4. – B. 340.].

Amir Shohmurodning xalqparvar siyosati uning atrofidagi amaldorlarning ishini mushkullashtirgan. Uning amalga oshirgan islohotlari va qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlari aka-ukalar o'rtaida dushmanlik munosabatlarini vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Shohmurodning ukalaridan birortasi ham uni yoqtirmagan. Muhammad Hakimxon o'zining "Muntaxab ut-tavorix" asarida amir Shohmurodga nisbatan muvaffaqiyatsiz amalga oshirilgan suiqasd haqida yozib qoldirgan. Unga ko'ra, amirning ukalari uni o'ldirish maqsadida ikkita odam yollab, ularni ayollar qiyofasida Arkka yuborishadi. Haramga kirib olgan yollanma qotillar uqlab yotgan amir Shohmurodning duch kelgan yeriga pichoq urib yarador qilishadi. Ammo, amir tirik qolib, o'ziga kelgandan so'ng, o'zini tashqariga chiqarishlarini, odamlar uning tirikligini ko'rishlarini buyuradi. Saroy ahli buyruqni u aytgandek qilib bajarishadi va tong otgach, bu xabar butun shahar bo'y lab yoyiladi. Yollanma qotillarni uning ukalari yuborganini bilib qolgan amir Shohmurod, ularga qarshi biror chora ko'rmaslikni afzal ko'rib, ukalariga shavqat va marhamat qilganini bildiradi. Ukalari amirning ushbu yo'lni tutganini eshitgach, Buxoroda qolishni or-nomusdan ep ko'rmay, har biri har tarafga bosh olib ketadi. Xususan, Sultonmurod qushbegi haj safariga jo'nab ketib, yo'lda olamdan o'tadi. Mahmudbiy esa Qo'qonga ko'chib ketadi [5].

Amir Shohmurod 1800-yili 30-noyabrda, juma kuni bomdod mahali Buxoroda vafot etgan va o'zining vasiyatiga ko'ra Jo'ybor mavzesidagi Eshoni Imlo qabristonida Hoji Habibulloh va piri (ustozi) Muhammad Safar Xorazmiy qabrlari poyiga dafn etilgan. Shohmurod shaxsi keyinchalik aholi orasida avliyo darajasiga ko'tarilib, uning qabri muqaddaslashtirilgan va "Jannatmakon" qabri nomi bilan atalgan[5].



Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, amir Shohmurod chindan ham boshqa mang'it amirlaridan o'zinjingadolataparvarligi, xalqparvarligi, donoligi va yuksak e'tiqodi bilan ajralib turgan. Yumshoqtabitliligin esa, ukalari tomonidan suiqasdga uchrasa ham, ularga mehr-shavqatli bo'lganidan bilishimiz mumkin. U hukmdor bo'lsa ham, darveshona hayot kechirgan. Tariqat yo'lida borib, faqirona hayot kechirishda davom etgan. Amir bir yilda bitta oddiy ko'ylak, bitta olacha chopon va bitta ishton kiygan. Boshiga bo'z salsa o'ragan. Egnida kiyib yurgan po'stinining narxi 2 tangadan oshmagan. Qo'lida hunari ham bo'lgan. U pichoq qini yasab, hamma qatori o'z kasbi bilan tirikchilik qilgan. Shu jihatlari uchun ham xalq orasida "Amiri Ma'sum" deb atalgan. Bunday hukmdor tarixda bir bo'ldi, yana qayta bo'lishi dargumondir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Zamonov A. O'rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma'lum sahifalari. – T.: Bayoz, 2020.
2. Muqimov Z. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. – T.: Adolat, 2003.
3. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2000.
4. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruva tarixi. – T.: Yangi asr avlod, 2012.
5. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Amir_Shohmurod



О'ZBEK XALQINING OTASHQALB FARZANDI

Abduvohidova Ruxshona Doniyorbek qizi

Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi

E-mail: ruxshona01062005@gmail.com

Tel: +998931021725

Ilmiy rahbar: Zoxid Madrahimov

NamDU, Tarix kafedrasи dotsenti, t.f.n.

Anotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalqining fidoyi farzandi Sharof Rashidovning murakkab hayot yo'li, oilasi, ijodi, sobiq tuzum davrida respublikadagi siyosiy arbob sifatidagi o'rni, hokimiyatni boshqargan paytidagi murakkab davr haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Jizzax, O'zbekiston davlat universiteti, ikkinchi jahon urushi, yozuvchilar uyushmasi, sobiq tuzum, O'zbekiston SSR, Sharof Rashidov, davlat rahbari, Kuba, Fidel Castro, sanoat, qishloq xo'jaligi, ilm-fan, madaniyat, adib, paxta ishi.

Анотация: В данной статье представлена информация о молодости, семье, творчестве, роли политического деятеля в истории бывшей ССР, а также о сложном периоде пребывания у власти самоотверженного сына узбекского народа, полководца-энтузиаста Шарофа Рашидова.

Ключевые слова: Куба, Советский Союз, Бывший ССР, Фидел Кастро, коммунист, Центральный Комитет, техникум, "Путь Ленина", журналист, снайперская бригада, критик, заместитель.

Anotation: This article provides information about the youth, family, creativity, the role of a political figure in the history of the former SSR, and the difficult period when he was in power og the selfless son of the Uzbek people, the enthusiastic leader Sharof Rashidov.

Key words: Cuba, Soviet, Former USSR, Fidel Castro, communist, Central Committee, technical school, "Lenin's way", journalist, sniper brigade, critic, deputy.

*"... Sharof Rashidovning umri sandon
bilan bolg'a o'rtasiga qo'yilgan edi".*

Islom Karimov



Istiqlol kunitizga yetganlar bor, yetmaganlar bor. Ko'pgina ajdodlarimiz kabi Sharof Rashidov ham mustaqillik kuniga yetib kelolmadi. Biz bugun to'liq ishonch bilan ayta olamizki, Sharof Rashidov mustaqillik poydevoriga munosib g'isht qo'ya olgan arboblardan edi.

Daqiqani adabiyotdan ayri holda tasavvur qilib bo'lmanidek, Sharof Rashidov hayotini ham o'zbek xalqining tarixidan, hayotidan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi.

Nima uchun butun dunyo bo'ylab Sharof Rashidovning nomi xalqi mujassamlashtirgan fazilatlar timsoli sifatida qabul qilinadi? Nega xalqimiz uni davlat arbobi sifatida yuksak e'zozlaydi? Nima sababdan hamma unin yozuvchi, shoir, inson qalbining zukko bilimdoni sifatida ardoqlaydi?

Javob bitta! Sharof Rashidov o'zini tarbiyalab voyaga yetkazgan xalqqa hayotini, butun borlig'ini tikkani uchun! [4. – B. 89.]

Taniqli adib va yirik jamoat arbobi Sharof Rashidov 1917-yilning 6-noyabrida Jizzax shahri atrofidagi Sovungarlik qishlog'ida tavallud topdi. Otasi Rashid Halilov yetti pushti dehqon bo'lib, suyagi mehnatda qotgan, umri qora mehnatda o'tganligiga qaramasdan, oilasida bilim olishga intilish juda kuchli edi [5]. U haqiqatgo'y inson bo'lган, shuning uchun ham uni qishloq doshlari "To'g'riso'z" deb atashgan. Onasi Qo'ysinoy Halilova ham oddiy qishloq ayoli bo'lib, qizlar uchun ochilgan boshlang'ich mакtabda ta'lim olgan [3. – B. 106.].

Sharof Rashidov 1924-yil 7 yoshida Jizzaxdagi 7 yillik Narimonov nomidagi 10-o'rta maktabning 1-sinfiga qabul qilinadi. Bu maktabda turli yillarda atoqli shoir Hamid Olimjon, yozuvchi Nasrullo Oxundov, akademik O'ktam Sharipov, O'zbekiston xalq yozuvchisi Nazir Safarov, dramaturg va davlat arbobi Sarvar Azimov, taniqli bolalar shoiri Shukur Sa'dulla kabi taniqli insonlar tahsil olishgan. 1932-yilda maktabni bitirgach, Jizzax pedagogika texnikumiga o'qishga kiradi. Texnikumda u nafaqat a'luchi talaba, balki, yaxshigina tashkilotchi sdifatida ham namoyon bo'ldi. U texnikum kasaba uyushmasiga rais etib saylandi. 1935-yil texnikumi bitirib, 2 yil maktabda o'qituvchilik qilgan.

Sharof Rashidov 1937-yili Samarqanddagi O'zbekiston davlat universitetiga o'qishga kirgan. Talabalik yillarida ijod bilan shug'ullanib, she'rlar va kichik hikoyalari yozish bilan birgalikda, Samarqanddagi "Lenin yo'li" gazetasida muxbir, mas'ul kotib, muharrir muovini¹ bo'lib ishlaydi. O'qishni bitirish arafasida gazeta muharriri lavozimida faoliyat yuritadi.

¹ Muovin – boshliq yoki rahbarning o'rinosi. Birovga ko'maklashuvchi, yordamchi.



1941-yilda boshlangan urush ko'plar qatori Sharof Rashidovning ham hayotiy rejalarini o'zgartirib yubordi. Shu yilning noyabrida Frunze (hozirgi Bishkek) piyodalar bilim yurtini tezlashtirilgan dastur asosida tugatgandan so'ng, Kalinin frontiga jo'natiladi. 1941-yil dekabrda Moskva ostonalaridagi janglarda qatnashadi [5].

1942-yili Shimoli-g'arbiy frontdagi o'qchi brigadalarining 25 yoshar siyosiy rahbari Sharof Rashidov og'ir yarador bo'lib, yurtiga qaytadi. 30 yoshida "Qizil O'zbekiston" gazetasiga muharrir etib tayinlanadi. Respublika jurnalisti uchun bu lavozim – oliy cho'qqi edi [4. – B. 90.].

Sharof Rashidov yozuvchi sifatida ham tez xalq e'tiborini qozondi. O'zbekiston adiblari tomonidan Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining raisi etib saylanadi [4. – B. 90.].

Sharof Rashidovning ijodi 30-yillarning ikkinchi yarmida boshlangan. U dastlab she'riyatda qalam tebratib, "Samarqand kuylari" nomi bilan birinchi she'riy to'plamni e'lon qilgan. Ikkinchi jahon yillarida yozgan she'rlari 1945-yilda "Qahrim" to'plamida chop etilgan. U ayni chog'da adabiyotshunos va munaqqid² sifatida ham qalab tebratgan.

Sharof Rashidov ijodida maqolanavislik ham muhim o'rinni egallagan. Shuning uchun ham uning badiiy ijod namunalarida bu ruh yetakchilik qiladi. Adibning "G'oliblar" (1953) qissasi, 1972-yilda qayta ishlanib, "G'oliblar" romani sifatida nashr etildi. "Bo'rondan kuchli" (1958), "Qudratli to'lqin" (1964) romanlari yaratildi. Ularda o'zbek xalqining urushdan keyingi tiklanish yillaridagi mehnat jasorati o'z badiiy ifodasini topgan. Ijodkorning "Kashmir qo'shig'i" (1957), "Komde va Mudan" (1957) kabi yirik qissalari va "Koinot" (1960) kabi kinoqissalari an'anaviy Sharq dostonchiligi uslubida bitilgan bo'lib, yoshlik, bahor, go'zallik, hayot nashidasini madhiga bag'ishlangan. Adib hayotining so'nggi yillarida yaratgan "Dil amri" qissasi urush yillarida Belarus zaminida kechgan jangchilarining g'alaba yo'lida olib borgan, hayot - mamot kurashiga bag'ishlangan. O'zbek adabiyotining eng ko'p tarqalgan asarlaridan biri, shubhasiz, "Kashmir qo'shig'I" qissasidir. She'riy parchalar bilan omuxta qilingan, hajman kichik bu nasriy qissa, jahoning 56 ta tiliga tarjima qilingan [5].

Sharof Rashidov 33 yoshida O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining Raisi bo'ladi. Sobiq SSR tarixida bunday yosh rahbar, oliy hokimiyat egasi bo'limgan. Ammo Sharof Rashidovning taqdiridagi asosiy pag'ona hali oldinda edi. U 1959-

² Munaqqid – (arabcha - tanqid) tanqid qiluvchi kishi.



yilda o'sha davrning eng yuqori lavozimi – O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari etib saylanganida endigina 40 yoshdan oshgan edi. Sharof Rashidov bu yuksak vazifada umrining oxirgi kunlariga qadar sabot va matonat bilan ishladi. Respublikaga qariyb chorak asr yetakchilik qildi. Bu paytlar tarixning o'ziga xos eng murakkab davri edi [4. – B.90.].

Sharof Rashidov 1960-yillardan boshlab xalqaro siyosat maydoniga chiqishlar qila boshladi. 1962-yilda Kuba inqirozi paytida u Fidel Castro bilan muzokaralarda sovet delegatsiyasiga rahbarlik qildi. 1966-yilda Toshkentda A.Kosigin vositachiligidagi Hindiston Bosh vaziri L.Shastri va Pokiston Prezidenti Muhammad Ayubxon o'rtasida muzokaralar bo'lib o'tdi. Bu muzokaralarni tayyorlashda Sharof Rashidov ham ishtirok etgan.

Sharof Rashidovning nomi uning rahbarligi davrida sodir bo'lgan mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq. Uning davrida V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi dunyodagi eng yirik 5 ta aviatsiya korxonalaridan biriga aylangan. Bu yerda yiliga 60 dan ortiq yirik samolyotlar ishlab chiqarilgan. Toshkent traktor zavodida yiliga 21 mingda ortiq traktor, "Tashselmash" da 10 mingdan ortiq paxta terish kombaynlari ishlab chiqarilgan. 1969-yilda O'zbekistonda Muruntov oltin koni o'zlashtirildi, undan yiliga 100 tonna oltin qazib olindi.

Sharof Rashidov davrida O'zbekiston yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlangan industrial - agrar respublika aylandi. O'g'ir sanoat o'n barobar o'sdi. Yirik issiqlik elektr stansiyalari (Toshkent, 1971-yildan, Sirdaryo, 1975-yildan, Navoiy, Angren DUK lar) va gidroelektr stansiyalari (Chorvoq, 1972-yildan) qurildi, gaz (Gazli koni, 1961-yildan) va neft qazib olish o'zlashtirildi. Mashinasozlik sohalari sezilarli darajada rivojlandi [6].

1966-yil 26-apreldagi zilziladan so'ng Toshkentni qayta tiklash ishiga ko'p kuch-quvvat, g'ayratini sarfladi. Toshkent metropoliteni qurilishi uning tashabbusi bilan boshlangan. Metropolitennenning birinchi navbati ya'ni 9 ta bekti 1977-yil noyabrda ishga tushirildi [2. – B.117.]. 1969-yil Samarqandda temuriylar davri san'ati tarixiga bag'ishlangan xalqaro simpozium bo'lib o'tdi. 1970-yilda Samarqandning 2500 yilligi nishonlandi, shu munosabat bilan Samarqandda yirik tadbirlar o'tkazildi. 1973-yilda mashhur olim Abu Rayxon Beruniy tavalludining 1000 yilligi keng nishonlandi va u haqida badiiy fil'm suratga olindi. O'zbekistonda Sharof Rashidov rahbarligidagi ilmiy-tadqiqot institutlar soni 1960-yildagi 64 tadan 1980-yillarning boshlarida 100 taga yetdi. Uning tashabbusi bilan O'rta Osiyoda birinchi bo'lib, Arxeologiya instituti tashkil etilgan.



1983-yilning oxirida O'zbekistonda juda o'gir vaziyat vujudga keldi. Respublikada jinoyatchilikka qarshi kurashish niqobi ostida SSSR Bosh prokurori huzurida alohida muhim ishlar bo'yicha maxsus 12 kishilik tergovchilar guruhi tuzilib, O'zSSR ga yuboriladi. Ular O'zSSR da paxta tayyorlash va uni qayta ishslash bilan bog'liq jarayonlardagi "qo'shib yozish", "o'g'irlik", "ko'zbo'yamachilik", "poraxo'rlik"ni (aslida bunday moliyaviy jinoyatlar va qirg'inliklar butun SSSR hududidagi iqtisodiyotda chuqur ildiz otib ketgan edi) tergov qilish bilan shug'ullandilar. Buning matijasida respublikada "paxta ishi" paydo bo'ldi. Tergovlar jarayonida Moskvadan yuborilgan T. X. Gdlyan va N. V. Ivanov guruhining faoliyati natijasida respublikadagi jamoa xo'jaliklari raislari va sovxozi direktorlarining 60 %, qishloq xo'jaligi yetakchi mutaxasislarining 45 %, paxtachilik brigada boshliqlarining 35 %, shuningdek, ko'plab rahbarlar, viloyatlar va tumanlar partiya komiteti kotiblari, respublika miqyosidagi partiya, sovet va xo'jalik rahbarlari o'z vazifalaridan olib tashlandi va ularga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atildi.

O'zSSRning ijtimoiy-siyosiy hayotida 1984-yil 23-iyunda bo'lib o'tgan O'zbekiston Kompartiyasi MK XVI plenumi mash'um ro'1 o'ynagan. Moskva tashabbusi va ko'rsatmasi bilan tashkil qilingan bu plenumda qabul qilingan hujjatlar O'zSSR da o'zbek xalqini asossiz badnom etish kompaniyasini boshlab berdi. Markazning tazyiqi ostida 1984-yildan O'zbekistondagi rahbarlik lavozimlariga sobiq ittifoqning ayrim joylaridan "kadrlar desanti" kela boshladи. 1984 – 1987-yillarda Moskva, Leningrad va Rossiyaning boshqa shaharlaridan 400 dan ortiq kishi O'zbekistonning partiya, sovet, ma'muriy-xo'jalik organlariga ishga yuborildi. Xususan, 1984 – 1989-yillarda O'zSSR IIV ga Sobiq Sovetlar mamlakatidan hammasi bo'lib, 150 ta xodim kelgan. Yillar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, 1984-yilda 5 ta, 1985-yilda 33 ta, 1986-yilda 86 ta 1987-yilda 27 ta, 1988-yilda 2 ta, 1989-yilda 3 ta [1. – B. 489.].

Respublikada kadrlarni almashtirish siyosati ayanchli tus oldi. Markaziy matbuotda e'lon qilingan maqolalarda o'zbek xalqi badnom etilib, "paxta ish" ga ataylab siyosiy tus berildi va u keyinroq atay "o'zbek ishi" ga aylantirilib, xalqimizning nafsoniyatini toptash yo'liga o'tildi. 1983 - 1990-yillarda O'zSSR da "paxta ishi" degan uydirma bo'yicha jami 40 ming kishi tergov qilindi. Ularning aksariyati tergov izolatorlarida prokuror sanksiyasisiz o'tirdi, 5 ming kishi esa soxta ayblar bilan jinoiy javobgarlikka tortildi.

Bu davrda Markaz tomonidan totalitar tuzumning barcha kirdikorlari vafot etib ketgan partiya va davlat arboblariga yuklanib, 80-yillar qatag'onida nohaq qoralandi. Eng avvalo qatag'on qilichi Sharof Rashidovga qarshi ko'tarilib, uning nomi ham



badnom etildi. 1959 – 1983-yillarda Sharof Rashidov O’zbekiston Kompartayasi MQ ning birinchi kotibi bo’lib ishlagan va rahbarlik yillarida qator bunyodkorlik ishlari bilan birga qishloq xo’jaligi yerlaridan ekstensiv foydalanish oqibatida ekologik vaziyatning buzilishi, paxta yakkahokimligining qaror topishi kabi noxush holatlar ham yuz berdi. Albatta bunday holatlarni uning faoliyati natijasida yuzaga kelgan deb bo’lmaydi, balki sovet hokimiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi keltirib chiqargan edi. “Paxta ishi” oqibatida butun mamlakatda parokandalik, loqaydlik, umidsizlik va ishonchsizlik kayfiyati chuqurlashdi [1. –B. 490.].

Sharof Rashidov davlat ishlari bilan qanchalik band bo’lmasin, farzandlari tarbiyasi uchun ham vaqt topa olgan. Xalqparvar otaning o’gitlariga amal qilgan farzandlarining barchasi oliy ma’lumotli, xalq xizmatiga kamarbasta mutaxassislar bo’lib yetishishdi. Uning 4 ta qizi va 1 ta o’gli bor. Katta qizi Sayyora Rashidova kimyo fanlari doktori, akademik. U uzoq yillar Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Inson huquqlari (Ombudsman) bo’yicha Vakillik lavozimida ishladi. 100 dan ortiq ilmiy maqolalar yozgan. Ikkinchchi qizi Dilorom va uchinchi qizi Gulnora Rashidovalar fan nomzodlari. O’g’li Ilhom Rashidov esa oliy ma’lumotli harbiy, tarix fanlari nomzodi. To’rtinchi qizi Svetlana Rashidova chet tili o’qituvchisi. Qizi Gulnora Rashidovaning aytishicha, Sharof Rashidov farzandlarini odamlarni hurmat qilishga, qo’pol gapirmaslikka, hammaga “Siz” deb murojaat etishga, o’zlarini boshqalardan ustun qo’ymaslikka o’rgatgan. Farzandlariga doimo hasad qilib emas, havas qilib yashang, deb nashihat qilgan. Oilada hech qachon hech kim yolg’on ishlatmagan. Sharof Rashidovning turmush o’rtog’i Xursand Rashidova tarix fanlari o’qituvchisi bo’lgan [3. – B. 108-109.].

Mustaqillik yillarida, Sharof Rashidov xotirasini abadiylashtirish maqsadida qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, Toshkent shahrining Mustaqillik maydoni yonidagi ko’chaga Sharof Rashidov nomi berildi. 2016-yil 23-dekabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qarori bilan Jizzax viloyatinng Jizzax tumaniga “Sharof Rashidov tumani” nomi berildi. 2017-yil 27-mart kuni O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini keng nishonlash haqida” gi qarori qabul qilindi. Shu yilning 6-oktabr kuni Jizzax shahrida Sharof Rashidovning haykali o’rnatildi [6].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Sharof Rashidov o’zbek xalqining chinakam asl o’g’loni edi. Uning boshqaruv davri SSSR dagi murakkab davrga to’g’ri kelishiga qaramay, O’zbekistonni har tomonlama rivojlantirishga harakat qilib, jon-jahdi kurashdi. Fan, san’at, adabiyot, qurilish har tomonlama o’sdi. Hattoki, ikkinchi jahon urushi jangohlarda matonat ko’rsatib, Vatani uchun, xalqi



uchun kurashdi. Lekin urush olovi ichida bo'lsa ham ijoddan to'xtamadi. Urush davrida xalq ruhiyatidan kelib chiqib shunday asarlar yaratdiki, bu asarlari yuraklarga yetib borib, qalblardan joy oldi, xalqqa manzur keldi.

Mamlakatimizda paxta yakkahokimligi avj olib, yerlarga faqat paxta ekilishi boshqa xo'jalik mahsulotlarini kamayishiga olib keldi. Bu esa boshqa ekinlarga talabni kuchaytirib, narx-navoning oshishi, hamda, aholi orasida noroziliklarga sabab bo'ldi. Markazdan esa paxtaga qo'yilgan talab oshib boraverdi. Bu esa keyinchalik "qo'shib yozish" ni keltirib, "paxta ishi" siyosiy harakati tus oldi. Markaz o'ziga yoqmagan, Vatani, xalqi uchun jon kuydirgan rahbar-u hokimlarni birma-bir yo'q qilish siyosatini boshlab, "paxta ishi"ni, "o'zbek ishi"ga aylantirdi. Sharof Rashidov ham shunday qabix siyosat qurbaniga aylandi. Qaysi davrda, qanday holatda bo'lmasin, bir kun albatta haqiqat qaror topadi. Mustaqillik sharofati bilan o'tmishdagi adolatsizliklar o'z haqiqatlarini topdi. Sharof Rashidovning pok nomi oqlandi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Shamsuddinov R., Mo'minov H. O'zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2013.
2. Rajabov Q., Zamonov A. O'zbekiston tarixi. – Toshkent, 2017.
3. Jo'rayev U., Usmonov Q. Tarixdan hikoyalar. – Toshkent, 2020.
4. Karimov I. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura / I jild. – Toshkent, 1996.
5. Oz.-sputniknews.uz.cdn.ampproject.org.
6. Uz.m.wikipedia.org.



IJTIMOIY TARMOQLAR VA XAVFLAR

Andijon davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchilari

Ahmedov Abdulhay Toshto'xtayevich,

Jabborova Sayyoraxon Muxammadqobilovna.

Andijon davlat pedagogika instituti ona tili adabiyot ta'lif yo'nalishi

1-bosqch talabalari Abduqaxxorov Miraziz Doniyorbek o'g'li,

Qobulova Nozimaxon Rahimjon qizi.

Anotatsiya

Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy jamiyatdagi roli va ulardan kelib chiqadigan xavflar keng yoritiladi. Ijtimoiy tarmoqlar global aloqani kengaytirib, biznes va ta'lilda yangi imkoniyatlar yaratgani holda, shaxsiy ma'lumotlarning buzilishi, dezinformatsiya tarqalishi va psixologik salomatlikka tahdid kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Maqola ushbu masalalarning sabablari va oqibatlarini tahlil qiladi hamda xavflarni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar beradi. Maqsad – ijtimoiy tarmoqlarni xavfsiz va mas'uliyatli foydalanishni targ'ib qilish.

Аннотация

В данной статье рассматривается роль социальных сетей в современном обществе, а также риски, связанные с их использованием. Социальные сети расширяют возможности глобальной коммуникации, создают новые перспективы в бизнесе и образовании, но при этом приводят к проблемам, таким как утечка личной информации, распространение дезинформации и угрозы психологическому здоровью. В статье анализируются причины и последствия этих проблем, а также предлагаются рекомендации по их минимизации. Цель работы – пропаганда безопасного и ответственного использования социальных сетей.

Annotation

This article explores the role of social media in modern society and the risks associated with their use. Social media platforms enhance global communication, create new opportunities in business and education, but also lead to issues such as personal data breaches, the spread of misinformation, and threats to psychological well-being. The article analyzes the causes and consequences of these problems and provides recommendations for mitigating them. The goal is to promote the safe and responsible use of social networks.



Kalit so'zlar: Ijtimoiy tarmoqlar, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, dezinformatsiya, psixologik salomatlik, kiberhujumlar, onlayn xavfsizlik, xavf va imkoniyatlar, axborot texnologiyalari, mas'uliyatli foydalanish, tarmoqlar va kreativlik, global aloqalar, shaxsiy hayotning buzilishi, internet qaramligi, onlayn ta'qib, ta'lim va biznes imkoniyatlari.

Ключевые слова: Социальные сети, безопасность личных данных, дезинформация, психологическое здоровье, кибератаки, онлайн-безопасность, риски и возможности, информационные технологии, ответственное использование, сети и креативность, глобальная коммуникация, нарушение личной жизни, интернет-зависимость, онлайн-издевательства, образовательные и бизнес-возможности.

Key words: Social media, personal data security, misinformation, psychological health, cyberattacks, online security, risks and opportunities, information technologies, responsible use, networks and creativity, global communication, privacy breach, internet addiction, online harassment, educational and business opportunities.

Kirish

XXI asr texnologik taraqqiyoti ijtimoiy tarmoqlarni inson hayotining ajralmas qismiga aylantirdi. 2004-yilda Facebookning paydo bo'lishi bilan boshlangan jarayon bugungi kunda TikTok, Instagram, Youtube va boshqa platformalarning global tarmoqqa aylanishi bilan davom etmoqda. Ushbu platformalar muloqot qilishning yangi usullarini yaratib, dunyo aholisini birlashtirdi. Ammo texnologik inqilobning ijobiy jihatlari bilan birga, ko'plab salbiy oqibatlar ham yuzaga chiqmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyatlari:

Ijtimoiy tarmoqlar inson hayotiga katta o'zgarishlar olib kirdi. Quyida ular orqali erishilgan asosiy imkoniyatlar keltirilgan:

1. Global mashuv aloqani rivojlantirish

Ijtimoiy tarmoqlar dunyo bo'ylab odamlarni birlashtirib, geografik chegaralarni yo'q qilishga yordam beradi. WhatsApp, Messenger va Telegram kabi platformalar shaxsiy muloqotni qulaylashtirsa, LinkedIn professional aloqalarni rivojlantiradi. Bu esa nafaqat yaqin do'stlar va oila a'zolari bilan aloqa qilishni, balki xalqaro darajada hamkorlik o'rnatishni osonlashtiradi.



2. Ma'lumot va ta'lim olish imkoniyati

YouTube, Coursera, Ibrat Academy va Khan Academy kabi platformalar bilim olishni hammabop qildi. Ijtimoiy tarmoqlarda o'qituvchilar, mutaxassislar va tashkilotlar turli mavzularda darsliklar, seminarlar va ta'limiy kontentni bo'lishmoqda. Bu o'quvchilar va talabalar uchun bilim olishni osonlashtirib, dunyo bo'ylab ta'lim imkoniyatlari kengaytiradi.

3. Kreativlik va tadbirkorlik uchun imkoniyatlar

Instagram, TikTok va Pinterest kabi platformalar ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish va rivojlantirish imkonini beradi. Foydalanuvchilar o'z g'oyalari, dizaynlari yoki san'at asarlarini ommaga taqdim etib, o'z qobiliyatlarini yanada rivojlantirishi mumkin.

4. Tadbirkorlik va marketing imkoniyatlari

Ijtimoiy tarmoqlar kichik va yirik bizneslar uchun yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Facebook, Instagram va TikTok reklama vositalarini taklif etib, tadbirkorlarga o'z mahsulot va xizmatlarini keng auditoriyaga targ'ib qilish imkonini yaratdi. Elektron tijorat platformalarining ijtimoiy tarmoqlar bilan integratsiyasi ham sotuvni osonlashtirmoqda.

5. Jamoatchilik faolligini oshirish

Ijtimoiy tarmoqlar jamiyatdagi muhim masalalarni ko'tarishda muhim rol o'ynamoqda. Ular orqali xayriya aksiyalari tashkil qilinib, jamoatchilik e'tiborini dolzarb muammolarga qaratish mumkin. Hashtag kampaniyalari yoki petisiyalar katta auditoriyaga tez yetib boradi.

Ijtimoiy tarmoqlarning xavflari

1. Shaxsiy ma'lumotlarning buzilishi

Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini to'playdi va ular tez-tez xavfsizlik tahdidlariga duchor bo'lishi mumkin. Bu, o'z navbatida, ma'lumotlar o'g'irlanishi, shaxsiy hayotning buzilishi yoki firibgarlik holatlariga olib kelishi mumkin.

2. Dezinformatsiya va soxta yangiliklar

Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalgan dezinformatsiya va soxta yangiliklar jiddiy xavf tug'diradi. Bunday yangiliklar odamlarni noto'g'ri qarorlar qabul qilishga undashi, jamiyatda qo'zg'alishlar yaratishi yoki davlatlar o'rtasida ziddiyatlar yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

3. Psixologik salomatlikka ta'sir



Ijtimoiy tarmoqlar, ayniqsa, yoshlar orasida psixologik salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Doimiy taqqoslashlar, o'zini past baholash, kimlik krizisi va depressiya kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

4. Kiberhujumlar va onlayn ta'qiblar

Ijtimoiy tarmoqlarni xakerlar va kiberjinoyatchilar tomonidan foydalanish, foydalanuvchilarni xakerlik hujumlari, spamlar va boshqa onlayn tahdidlarga duchor qilish xavfini yaratadi. Bundan tashqari, ta'qib qilish (cyberbullying) kabi huquqbazarliklar ham ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan.

5. Zararlovchi kontent va radikalizm

Ijtimoiy tarmoqlarda radikal fikrlar, ekstremistik g'oyalar va zararli kontentning tarqalishi xavfi mavjud. Bu, o'z navbatida, yoshlarni noto'g'ri yo'lga solishi, zo'ravonlikka undashi va jamiyatda ijtimoiy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar ko'nikishni yuzaga keltiradi

Ekspertlar internetga ko'nikib qolish yoki ijtimoiy tarmoqlarga ko'nikib qolish sindromi mavjud-mavjud emasligi haqida yagona fikrga ega emas, biroq har ikkala holatda ham javob tasdiq shaklida bo'lishiga barcha asoslar bor.

Nottingem Trent universiteti olimlari kishi ruhiy xarakteristikasi, shaxs tipi va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish o'rtasidagi aloqalar haqidagi ilmiy adabiyotlarni o'rganib chiqdi. Tadqiqot mualliflari quyidagi xulosaga keldi:

"Facebook'ga bog'lanib qolish sindromi haqida gapirish uchun barcha asoslar mavjud. Chunki ijtimoiy tarmoqlarda juda ko'p vaqt o'tkazuvchi bir qator kishilarda shaxsiy hayotdan qochish, butun e'tiborni Facebook'ga qaratish, haqiqatdan uzoqlashish, kayfiyatning keskin tushishi, real hayotdan uzoqlashish istagini yashirish kabi qaramlikning barcha belgilari kuzatiladi".

Shuningdek, tadqiqotlar xuruj sindromi ham mavjudligini ko'rsatdi. Bir necha yil avval Suonsidagi universitet olimlari internetdan foydalanishni to'xtatgan kishilar ruhiy xurujdan aziyat chekishini aniqladi.

Yaqinda ular ushbu mavzuda yangi tadqiqot o'tkazdi va internetdan voz kechish nafaqat ruhiy shikast yetkazishi, balki jismoniy sog'liqqa ham zarar yetkazishini aniqladi. Tadqiqot mualliflaridan biri Fil Rid bu holatni quyidagicha ta'riflaydi:

"Internetda juda ko'p vaqt sarflovchi kishilar mobil qurilmadan foydalanishni to'xtatganda, tashvishli holatga tushib qolishi bizga ancha ilgaridan ma'lum edi.



Biroq hozir ruhiy holatdagi o‘zgarishlar real jismoniy o‘zgarishlar bilan birga kechishini aniqladik”.¹

Maqsad – ijtimoiy tarmoqlarni xavfsiz va mas'uliyatli foydalanishni targ‘ib qilish. Ushbu maqsadga erishish uchun ijtimoiy tarmoqlarning foydalanuvchilarga salbiy ta'sirini kamaytirish, ularning mas'uliyatli va axloqiy foydalanishini ta'minlash, shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va onlayn xavfsizlikni oshirish zarurligini tushuntirish muhimdir. Bu orqali jamiyatda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri va ongli foydalanish madaniyatini shakllantirishga erishish mumkin.

Xulosa

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyatda aloqalar, ta'lif, biznes va kreativlik uchun yangi imkoniyatlar yaratgan bo‘lsa-da, ular shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, dezinformatsiya, psixologik salomatlik va kiberhujumlar kabi jiddiy xavflarni ham keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ijtimoiy tarmoqlardan mas'uliyatli va xavfsiz foydalanishni targ‘ib qilish muhimdir. Bu orqali foydalanuvchilarning salbiy ta'sirini kamaytirish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va axloqiy me'yorlarga rioya qilishni ta'minlash mumkin. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini rivojlantirish jamiyatda xavfsiz va samarali onlayn muhitni yaratishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Boyd, D., & Ellison, N. B. (2007). *Social Network Sites: Definition, History, and Scholarship*. Journal of Computer-Mediated Communication, 13(1), 210-230.
2. Kaplan, A. M., & Haenlein, M. (2010). *Users of the world, unite! The challenges and opportunities of Social Media*. Business Horizons, 53(1), 59-68.
3. Kuss, D. J., & Griffiths, M. D. (2017). *Social Networking Sites and Addiction: Ten Lessons Learned*. International Journal of Environmental Research and Public Health, 14(3), 311.
4. Tiggemann, M., & Slater, A. (2014). *NetGirls: The Internet, Facebook, and body image concern in adolescent girls*. International Journal of Eating Disorders, 47(6), 630-643.
5. Frigeri, A., Adamic, L. A., & Evan, J. A. (2014). *Rumor Cascades*. Proceedings of the Eighth International Conference on Weblogs and Social Media (ICWSM).

¹ <https://daryo.uz/2017/07/06/ijtimoiy-tarmoqlarning-6-ta-ilmiy-asoslantirilgan-xavfli-jihat>



6. Vosoughi, S., Roy, D., & Aral, S. (2018). *The spread of true and false news online*. Science, 359(6380), 1146-1151.
7. Anderson, R. (2008). *Security Engineering: A Guide to Building Dependable Distributed Systems*. Wiley.
8. Symantec. (2019). *Internet Security Threat Report*. Symantec Corporation.
9. Tuten, T. L., & Solomon, M. R. (2017). *Social Media Marketing*. Pearson.
10. Mangold, W. G., & Faulds, D. J. (2009). *Social media: The new hybrid element of the promotion mix*. Business Horizons, 52(4), 357-365.



KIBERJINOYATCHILIK

Andijon davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchilari

Ahmedov Abdulhay Toshto'xtayevich,

Jabborova Sayyoraxon Muxammadqobilovna

Andijon davlat pedagogika instituti ona tili adabiyot ta'lim yo'nalishi

1-bosqch talabalari

Mirzaqosimova Marjona Qodirjon qizi,

Hasanboyeva Mohinur Abdullaon qizi

Annotatsiya. Axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanib borayotgan bir vaqtda, internet tarmoqlari butun dunyo jamiyatiga, insonlarning hayoti, mulki, daxlsizligiga ham bir qancha muammolar olib kelmoqda. Hozirgi kunda

ma'lumotlarni xavfsiz saqlash, ularga nisbatan bo'lishi mumkin bo'lgan hujumlardan himoya qilish eng katta muammolardan biridir. Masalan "CIBER" iborasini eshitganimizda hammaning hayolida kundan-kunga jadallik bilan rivojlanishda bo'lgan, ko'plab insonlarni og'ir ahvolga solib qo'ygan kiber jinoyatchilik gavdalanadi. Ushbu sohada turli xil kompaniyalar hamda davlat hukumatlari tomonidan kiber jinoyatlarning oldini olish uchun ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin amalga oshirilayotgan ishlar natijasida kiber jinoyatchilik hali ham o'z xavfini insonlarga tarqatib kelmoqda. Ushbu maqola kelajakda sodir etilishi mumkin bo'lgan hamda hozirgi kunda sodir etilib kelayotgan kiber jinoyatlarni oldini olish va ularga barham berishda kiber xavfsizlikning o'rni yoritilib beriladi.

Kalit so'zlar: kiber, jinoyat, kiber jinoyatchilik, kiber xavfsizlik, internet tarmoqlari, shaxsiy xavfsizlik, ma'lumotlar xavfsizligi, jinoyatlarni oldini olish, firibgarlik, veb-saytlar, xakkerlik, rekvizitlar, fishing.

Annotation. At the same time as information technology is developing rapidly, internet networks are also bringing several problems to the Society of the whole world, the life, property, inviolability of people. Nowadays, keeping data safe, protecting against possible attacks on them is one of the biggest problems. For example, when we hear the phrase "CIBER", cybercrime is embodied in everyone's imagination, which is rapidly developing from day to day, putting many people in a difficult position. Many works are being done in this area by various companies as well as state governments to prevent cybercrime. But as a result of the work being done, cybercrime is still spreading its danger to humans. This article highlights the



role of cyber security in preventing and ending cyber crimes that may occur in the future as well as currently occurring.

Key words: cyber, crime, cybercrime, cyber security, internet networks, personal security, data security, crime prevention, fraud, websites, hacking, props, phishing.

Аннотация. Информационные технологии стремительно развиваются. На данный момент сети Интернет затрагивают все мировое общество, жизнь людей, собственность, приносит ряд проблем с его целостностью. Настоящее время защита данных от возможных атак является одной из самых больших проблем. Например, фраза «CIBER» быстро развивается день ото дня в воображении каждого, когда мы его слышим киберпреступность, которая поставила многих людей в трудную ситуацию воплощенный. Различные компании и правительства штатов в этой области многое было сделано для предотвращения киберпреступлений увеличивается. Но в результате проделанной работы киберпреступность по-прежнему остается также распространяет свою опасность на людей. Эта статья появится в будущем предотвратить возможные и текущие киберпреступления выделена роль кибербезопасности в их получении и устраниении.

Ключевые слова: киберпреступность, киберпреступность, кибербезопасность, интернет сети, личная безопасность, безопасность данных, предотвращение преступности, мошенничество, сайты, взлом, реквизит, фишинг.

KIRISH

Firibgarlik – aldamchilik, hiylagarlik. Firibgar – firib beruvchi, hiylagar, aldoqchi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida firibgarlikka aldov yoki ishonchni suiste’mol qilish yo‘li bilan begona mulk yoki mulkka nisbatan huquqni qo‘lga kiritish, deb ta’rif berilgan. “Tovlamachi” esa kishilarni tovlab, laqillatib, qo‘rkitib kun ko‘rvuchi, firibgar shaxsdir. Tovlamachilik – ya’ni jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo‘rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor qilish bilan qo‘rkitib, o‘zgadan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo‘sindagi harakatlar sodir etishni talab qilish yoxud jabrlanuvchini o‘z mulki yoki mulkka bo‘lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo‘yish (O‘zb.Resp. JK 165-modda).



Firibgarlik jinoiy faoliyat bo‘lib, aldangan shaxs o‘zi bilmagan holda ixtiyoriy ravishda moddiy va moliyaviy vositalarini, mulk yoki mulkka bo‘lgan huquqini biron bir turdag'i firibgarga beradi. Bunda firibgar shaxsnинг soddaligi, iqtisodiy faoliyat bo‘yicha bilimsizligi, malakasizligidan foydalanib, taklif qilinayotgan operatsiyada ishtirok etishdan olinishi kutilayotgan yuqori daromad va naf to‘g‘risida chalkash tasavvur uyg‘otadi.

Firibgarlik o‘zining g‘oyasi va ijro etilishi nuqtayi nazardan murakkab jinoyat turi hisoblanadi. Uning predmeti bo‘lib o‘zganing molmulki yoki unga bo‘lgan huquq xizmat qiladi. Obyekti esa ma’lum shakldagi mulkka bo‘lgan munosabat hisoblanadi. Firibgarlikning o‘ziga xos xususiyati o‘zganing mol-mulki yoki unga bo‘lgan huquqni jabrlanuvchini aldash yoki uning ishonchiga kirib, uni suiste’mol qilish yo‘li bilan qo‘lga kiritishdir.

Firibgarlikning obyektiv belgilariga:

- 1) o‘zganing mulkini aybdorning yoki boshqa shaxs foydasiga olib qo‘yish yoki o‘tkazish;
- 2) ushbu xatti-harakati bilan mulk egasiga yoki mulkdan foydalanuvchiga real moddiy zarar yetkazish;
- 3) ushbu harakatlarni amalga oshirishning huquqbazarlik ekanligi;
- 4) ularni amalga oshirilishining qaytarilmasligi kiradi. Firibgarlikning muhim belgisi uning jinoiy xatti-harakat ekanlidir, chunki u moddiy tarkibga ega bo‘lgan jinoyatlar turkumiga kiradi.

Bir urinishda mashqlarni 1-3 marta bajarish mumkin. Mashg'ulotlar davomida urinishlar soni 5-6 marta bo'lib, har urinish orlig'ida 10 daqiqaga qadar dam olish tavsiya etiladi. Bu uslubda muskul chidamliligi ortishi ta'minlanadi. Mashqlarni takrorlash uslubi: o'rtacha og'irlilikdagi yuklar bilan mashqlarni har urinishda 5-15 marta bajarish. Mashg'ulotlar davomida urinishlar soni 3-5 marta bo'lib har urinish orlig'ida 3-5 daqiqa dam olish mumkin. Bu uslubda muskul hajmini samarali ortishi kuzatiladi. Yengil yuklar bilan mashqlar uslubi: yengil va o'rtacha og'irlilikdagi yuklar bilan mashqlar bajarishni tavsiya etadi. Bu uslubda mashqlar har urinishda 15-25 martagacha bo'ladi. Mashqlarni tezlik maromida bajarish kerak. Bir mashg'ulot dav omida urinishlar soni 5-6 marta bo'lishi ular oralig'idagi dam olish 52 muddati 5-10 daqiqa bo'lishi mumkin.

Bu shakldagi mashg'ulotlar shug'ullanuvchilarning tezkor kuch sifatlarini rivojlantirishga asos bo'ladi. Kuch mashqlari bilan mashg'ulot tayyorlov va asosiy qismida shug'ullanish tavsiya etiladi. Bu vaqtida organizmda jismoniy va ruhiy charchoqlar sodir bo'limgan bo'ladi. Muskul kuchini rivojlantirishda samarali natijalarga erishish uchun mashqlarni muskul guruhlari uchun alohida qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Kuch sifatlarini rivjlantirishda nafas olish jarayonlariga katta e'tibor qaratish kerak. Qisqa vaqtida og'ir yuklarni ko'tarishda nafasni tutib turish, kuch mashqlarni bajarishda chuqur nafas olmaslik, kuch mashqlarni bajarish vaqtida nafas olishni bir maromga solish tavsiya etiladi. Tezkorlik - harakatlarni tez bajara olish qobiliyati. Harakatlarni bajarishda organizmni tez javob bera olish imkoniyati deb tushunish mumkin. Harakatlar reaksiyasi tezkorlikni namoyish qilishning asosiy shakllaridan biri. Tezkorlikni namoyon qilishda harakat xaqida tushuncha hosil qilish, bu ma'lumotni asab tizimida o'zlashtirish hamda muskul tizimiga faoliyatni bajarish xaqida ko'rsatma berish kabi fiziologik jarayonlar amalga oshadi. Tezkorlikni namoyon qilishda yuqori malakali sportchilarda 0,1-0,2 soniya sarf etilishi mumkin. Tezkorlikni rivojlanganligiga irsiy xususiyatlar ham katta ta'sir etadi. Tezkorlik fazilat qisqa masofalarga yugurish bilan bir qatorda yakkakurash turlari, boks, qilichbozlik va ko'plab boshqa sport turlari asosi bo'la oladi.

Tezkorlik asosini oddiy va murakkab reaksiyalar tashkil etadi. - Oddiy reaksiya - oldindan ma'lum bo'lgan signalga tezkor harakat bilan javob berish. O'yin yoki harakatlar boshlash uchun hakamlarning ruxsati, hushtak chalishdan so'ng harakatlarga kirish jarayonlari oddiy reaksiya hisobiga amalga oshiriladi. - Murakkab reaksiyada notanish harakatlarga javob reaksiyasi. Bu jarayonlarda kurashchilar kutilmagan harakatlarga javob harakatlari bajarish bilan izoxlanadi.



Tezkor mashqlarni bajarish va ularni ko'plab takrorlash oddiy reaksiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Murakkab reaksiyalarni rivojlantirishda kurash bellashuvlardan foydalanish mumkin. Umumiy tezkorlikni rivojlantirishda tezkor mashqlarni ko'plab bajarish, uloqtirish va musobaqalashish uslublaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tezkorlikni namoyon etishda harakatni bajarish uchun qisqa vaqt sarf etish, harakat qismlarini tez bajarish, harakatlar takrorlash tezligini ortirish talablari qo'yiladi. Tezkorlik qobiliyati ko'p holda tug'ma bo'lib, sport tayyorgarlik jarayonlarida takomillashtirib boriladi. Tezkorlik fazilati ham etakchi fazilatlardan biri bo'lib barcha kurash turlarida o'z ahamiyatiga ega. Qisqa vaqt ichida katta tezlikda harakatlar bajarish kerak bo'lgan kurash turlarida kurashchilar tezkorlik sifatini keng rivojlantiradilar.

Tezkorlikni rivojlantirishda kurashning maxsus tezkor harakatlari bilan bir qatorda qisqa masofaga yugurishlar va mokkisimon yugurishlardan keng foydalaniladi. Chidamlilik - jismoniy harakatlarni tashqi va ichki ta'sirlarni engib, uzoq muddat davomida bajara olish qobiliyati. Chidamlilik charkhoqqa qarshi turish qobiliyati deb ham tushunish mumkin. Chidamlilikni rivojlantirish uchun uzoq vaqt jismoniy harakatlar bajarish va charchashni engishga o'rgatish zarur bo'ladi. Kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish uchun uzoq masofaga yugurishlar, kross va marafon yugurishlari bilan bir qatorda uzoq vaqt bellashulardan foydalanish mumkin.

Chidamlilikni ikki hilga ajratish mumkin. - Umumiy chidamlilik - harakatlarni uzoq muddat davomida o'rtacha shiddatda bajara olish qobiliyati hisoblanib, bu faoliyat aerob imkoniyatlar hisobiga amalga oshiriladi. Umumiy chidamlilik yurak qon tomir, nafas olish va organizmning boshqa a'zolarini jismoniy harakatlar bajarishda samarali faoliyat ko'rsatishi bilan izoxlanadi. Umumiy chidamlilikni rivojlantirishda uzoq masofaga yugurishlar, suzish va velosipedda uchish mashqlaridan foydalaniladi. Umumiy chidamlilikni rivojlantirish uslublari mashqlarning takroriy, izchil, ketma ket, oraliq va almashinish shakllarida bo'ladi.

- Maxsus chidamlilik

- kasbiy faoliyat yoki mutaxassislashgan sport turi shakliga muvofiq bo'lgan, charkhoqqa qarshi tura olish qobiliyati deb atash mumkin.

Maxsus chidamlilikning shakllari: tezkor chidamlilik; kuch chidamliligi: statik chidamlilik. Chaqqonlik - jismoniy harakatlar vazifalarini tez, aniq, samarali bajara olish qobiliyati. Chaqqonlikni rivojlantirishda

kasbiy faoliyat yoki sport mutaxassisligiga oid vositalar va jixozlardan foydalaniladi. Chaqqonlik muskullar sezuvchanligi, o'z o'zini boshqara olish, asab



markazini takomillashganligi, xarakatlarni tez o'zgartira olish va harakatlarni murakkabligiga tez moslasha olish qobiliyatlar bilan namoyon bo'ladi. Shuningdek yangi harakatlarni tez o'zlashtirish, harakatlarni sharoitlar tez o'zgarishiga muvofiq boshqara olish qobiliyatlar ham chaqqonlik sifatlarini belgilaydi. Chaqqonlik - harakatlarni tez o'zlashtira olish, harakatlarni boshqara olish hamda yangi harakatlarga tez kirisha olish mahorati deb ham qarash mumkin. Chaqqonlikni rivojlantirishda kurashchining makon va zamonni xis qila olish hamda harakatlarni boshqara olish qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Chaqqonlik o'ziga xos fazilat bo'lib kurashda turlicha namoyon bo'ladi. Chaqqonlik uchun kurash turlarida muskul zo'riqishlari bir vaqtida sodir bo'lishini, muskul zo'riqishlari makon talablari asosida vujudga kelishi, chaqqonlik makon (joy) va zamon (vaqt) muvofiqligida amalga oshirilishi, chaqqonlikni namoyon etish uchun barcha harakatlar o'zaro muvofiqlikda bo'lishi talab etiladi. Chaqqonlikni yuqori darajasi har handay harakatlarda ham tana muvozanatini saqlay olish qobiliyati hisoblanadi. Chaqqonlikni rivojlanirishda kurash usullariga xos bo'lgan harakatlardan keng foydalanish mumkin. Chaqqonlikni rivojlantirishda quyidagi vazifalar hal etiladi;

- Murakkab mashqlarni bajarishda harakatlarni boshqara olish;
- Sharoitlar tez o'zgarishiga muvofiq harakatlarni tashkil etish;
- Harakat vazifalarini aniq va tez bajarish.

Chaqqonlikni rivojlantirishda kurash turlari bajariladigan, shakli tez o'zgarib turadigan murakkab jismoniy mashqlar va harakatlarning ahamiyati katta bo'ladi. 55 Mashqlar murakkab, noan'anaviy bo'lib, harakat vazifalarini bajarishda yangicha yondoshish, ixtirochilik va kutilmagan harakatlarni taklif etishi kerak. Chaqqonlikni har mashg'ulotda rivojlantirish talab etiladi. Chunki bu qobiliyatni doimo takomillashtirib, yangi harakat malaka va ko'nikmalari bilan boyitib, sharoitga tez moslasha olish qobiliyatini shakllantirib, makon va zamonda o'z harakatlarini boshqara olish qobiliyatini rivojlantirib borilishini hamda kurash turlariga muvofiq harakatlar tezligi va aniqligini takomillashtirishni talab etiladi. Harakatlarni boshqara olish qobiliyatini rivojlantirish makonni va zamonni, harakatlar tezligi, shakli va maromini, tana va uning qismlarini makondagi holatini xis etish qobiliyatini rivojlantirish bilan olib boriladi.

Xulosa o'rnilida, Kurashchilarni jismoniy fazilatlarni rivojlantirishda maxsus sifatlarni ham tarbiyalashga katta e'tibor berish kerak. Kuch namoyon qilish jarayonlarida, tezkorlik mashqlari hamda harakatlarni boshqarish mashqlarni bajarishda ongli ravishda yondoshish kurashchilarda maxsus jismoniy sifatlarni shakllanishiga olib keladi.



ADABIYOTLAR

1. K.Yusupov. Kurash halqaro qoidalari texnikasi va taktikasi. Toshkent 2005.
2. Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy madaniyat instituti 2005 yil - 171b
3. N.X.Azizov. Belbog'li turkiston kurashi. Toshkent: O'qituvchi 1998.
4. Yusupov K., Kurash, T., 1999; Mo'minov A., Prezident. Sport. G'alaba!, T., 2001.
5. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. Toshkent. 2017



NEFT VA GAZ SOHASIDA BOSHQARUV TIZIMI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Murodov Xolmurod Xamzayevich

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, 2-kurs magistri.

e-mail: murodov-88@umail.uz

tel: 99-706-55-77

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Neft va gaz sanoatining innovatsion rivojlanishi jarayonining faoliyatini tashkillashtirish, o'zgaruvchan tashqi muhitda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, sanoat korxonalarining iqtisodiy xususiyatlarini, xatarlarni kamaytirish nuqtai nazaridan yirik va kichik biznesning o'zaro ta'sirini hisobga olish haqidadir. Shu bilan birga, jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida qayta tiklanmaydigan energiya manbalarining pasayishi, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun yoqilg'i uglevodorodlari va qattiq yoqilg'inining jahon bozorida raqobatning kuchayishi sharoitida yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarida yangi texnologiyalarni ishlab chiqish haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: neft, gaz, korgona, biznes, energiya, yoqilg'i, energetika, texnalogiya.

ANNOTATION

This article is about the organization of the process of innovative development of the oil and gas industry, the effective use of existing opportunities in the changing external environment, the consideration of the economic characteristics of industrial enterprises, the interaction of large and small business from the point of view of reducing risks. At the same time, in the context of the globalization of the world economy, the reduction of non-renewable energy sources, the development of new technologies in the enterprises of the fuel and energy complex in the context of increased competition in the world market of fuel hydrocarbons and solid fuel to ensure sustainable economic development passed.

Keywords: oil, gas, construction, business, energy, fuel, energy, technology.

Yoqilg'i-energetika majmuasining O'zbekiston uchun ahamiyati katta 2017-2021 yillarda O'zbekistonni iqtisodiy rivojlantirish strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri yoqilg'i-energetika kompleksini texnik va texnologik yangilash qilib belgilandi. Yoqilg'i-energetika tarmog'i mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Investitsiyalarning qariyb 50 foizi ushbu tarmoqqa yo'naltirilgan bo'lib, yalpi ichki mahsulotning 7-8 foizini tashkil etadi. Shu sababli, neft va gaz mamlakat uchun strategik manba hisoblanadi.

Shu bilan birga, jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida qayta tiklanmaydigan energiya manbalarining pasayishi, barqaror iqtisodiy rivojlanishni



ta'minlash uchun yoqilg'i uglevodorodlari va qattiq yoqilg'ining jahon bozorida raqobatning kuchayishi sharoitida yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarida yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish tobora muhim ahamiyat kasb yetmoqda. Shuningdek, yangi muqobil energiya manbalarini qidirish va keng jalb qilishga ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Hozirgi vaqtida eng asosiy muammolardan biri shundaki, ishlab chiqarish quvvatlarining sezilarli jismoniy va ma'naviy eskirishi, har doim ham ichki bozorda, ham xorijiy ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatga bardosh berishga imkon bermaydi. Ushbu muammo barcha energiya kompaniyalariga ham tegishlidir. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasining yoqilg'i-energetika sektori korxonalarida samarali innovatsion siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish zarurati yuzaga keladi, uning asosiy vazifasi ushbu sohaning intellektual, ilmiy va texnikaviy potensialini ishlab chiqarishda iloji boricha tezroq foydalanishga imkon beradigan tizimni yaratishdir.

Biroq, O'zbekiston iqtisodiyoti xalqaro standartlarga muvofiq juda katta energiya talab qiladi. O'zbekistonda xom neft qazib olish iyul oyida o'zgarishsiz 31 BBL/D/1K darajasida qoldi. O'zbekistonda xom neft qazib olish 1993 yildan 2024-yilgacha o'rtacha 67.12 BBL/D/1K bo'lib, 1998 yil dekabrida 118.00 BBL/D/1K ga yetdi va 2024 yil aprelida 31.00 BBL/D/1K darajaga yetdi.¹

Yuqorida keltirilgan salbiy omillarni hisobga olgan holda, umuman iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlarini, xususan yoqilg'i-energetika kompleksini innovatsion rivojlantirishning samarali mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish muhimligi shubhasiz. Energiya sanoatining innovatsion potensialining ortishi, bir tomondan, elektr energetikasining milliy iqtisodiy faoliyatning barcha sohalari bilan tarkibiy aloqalardagi roli bilan belgilanadi, uning ahamiyati O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga jadal integratsiyalashuvi tufayli ortib bormoqda. Boshqa tomondan, global iqtisodiy inqirozlar sharoitida YaIMning keskin pasayishini oldini olish, ularning yoqilg'i-energetika majmularining iqtisodiy va innovatsion imkoniyatlarini amalga oshirish orqali ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini namoyish etdi.

O'zbekistonning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasiga muvofiq sanoat va savdo zonalari, erkin iqtisodiy zonalar, logistika markazlari va klasterlarni rag'batlantirish davlat siyosatining asosiy ob'ekti bo'lishi kerak.

Klaster doirasiga qo'llab-quvvatlash ob'ektlari qatoriga nafaqat ishlab chiqarish korxonalari, balki ularga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, o'quv muassasalari, moliyaviy rivojlanish institutlari, eng muhimi, ushbu ishtirokchilar o'rtasida samarali o'zaro ta'sir o'tkazish mexanizmi kiradi. Klasterli tadqiqotlar, ayniqsa iqtisodiy inqiroz sharoitida, raqobatdoshlikni oshirishga hissa qo'shadigan korxonalarini tashkil etish va o'zini o'zi tashkil etishning yangi shakllarini izlash zaruriyati bilan dolzarbdir.

¹Trading Economics <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/crude-oil-production>.



Sohada menejmentga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borilayotganligiga qaramay, ushbu muammoning ko‘plab uslubiy va metodologik jihatlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Zamonaviy sharoitda sohani rivojlantirishning yagona konsepsiysi yaratilmagan, bu esa iqtisodiyotda raqobat ustunliklarini shakllantirish va ulardan samarali foydalanishga to‘liq imkon bermaydi. Milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda o‘rganishni talab qiladigan masalalar qatoriga quyidagilar kiradi:

- yoqilg‘i-energetika kompleksining ma’lum klasterini yaratish va rivojlantirish strategiyasini asoslash;

- klaster tashabbusini amalga oshirish mexanizmini va yoqilg‘i-energetika kompleksi klasteri doirasidagi ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil eetish mexanizmini yaratish;

- klaster rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralari va mexanizmlarini asoslash;

- yoqilg‘i-energetika majmui uchun klaster modelini yaratish.

Umuman olganda, O‘zbekiston yoqilg‘i-energetika kompleksining innovatsion tizimi quyidagi muammolar mavjudligi bilan tavsiflanadi:

- sohada innovatsion yechimlarni tijoratlashtirish, davlat muassasalarini tomonidan yaratilgan yoki davlat mablag‘lari hisobidan yaratilgan intellektual mulkka bo‘lgan huquqlarning taqsimlanishining noaniqligi bilan murakkablashtiradi;

- sohada o‘rta va uzoq muddatli istiqbolga ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlarni belgilovchi va ushbu yo‘nalishlarga erishish bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladigan maqsadli siyosat mavjud yemas. Alovida ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va rivojlantirish bo‘yicha mavjud dasturlar modernizatsiya qilishni, ishlab chiqarishni texnik darajasini oshirishni ta’minlaydi va eksport va import qilinadigan mahsulotlarning o‘rnini bosishga yo‘naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni talab qiladi. Biroq, ushbu dasturlarda mahalliy ilmiy salohiyatni rivojlantirishni rag‘batlantirish, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, qo‘llab-quvvatlovchi tuzilmalarni yaratish va ishlab chiqarishga innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar ko‘zda tutilmagan;

- sohani texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar asosan tayyor yechimlar importiga asoslangan. Biroq, faqatgina chet el texnologiyalarini sotib olish va xorijiy tashkiliy- boshqaruva qarorlarini nusxalash orqali yutuqlarga erishib bo‘lmaydi. Energetika kompleksi korxonalarida innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishga qodir integratsiyalashgan institutsional tizimni yaratish zarur.

Yoqilg‘i-energetika kompleksining rivojlantirishda quyidagi asosiy tendensiyalarni ajratishimiz mumkin:

- milliy iqtisodiyotning o‘sish sur’ati va mamlakat ichidagi yoqilg‘i-energetika resurslariga talab dinamikasi;



- jahon iqtisodiy sharoitining ahvoli;
- energiya sektori va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida resurslar va energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish ko‘lami;
- soliq, narxlar va bojxona siyosati sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishni ko‘zda tutuvchi qulay investitsiya muhitini shakllantirish;
- yoqilg‘i-energetika kompleksi atrof-muhitning eng katta ifloslantiruvchi soha ekanligini hisobga olgan holda energiya va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirish;

Shu sababli, neft va gazdan milliy boylik sifatida to‘liq foydalanish, uzoq muddatli istiqbolda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va ishlashi uchun poydevor yaratish hamda mamlakatimiz aholisini barcha turdagи yoqilg‘i-energetika resurslari bilan ta’minalash uchun yoqilg‘i-energetika tizimining samarali ishlashini ta’minalaydigan tashkiliy-boshqaruv tuzilishga ega bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida"gi Qonuni. O’zbekistonning yangi qonunlari. T.: "Adolat", 1996.
2. Ashurov Z.A. Korporativ boshqaruv konsepsiysi va mohiyati: ilmiy-nazariy yondashuvlar va ularni rivojlantirish// “Iqtisodiet va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnalı. № 6, noyabr-dekabr, 2015 yil
3. Ishmanova D.N. Neft-gaz korxonalarida innovatsion strategik boshqarishni takomillashtirish// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnalı. № 3, may-iyun, 2019 yil



NAVOIY IJODIDA MUSHTARAK SAN'ATLARNING IFODALANISHI

Sultonova Dildora Halim qizi

Uzbekistan State World Languages University,

Independent research student,

Tashkent, Republic of Uzbekistan

E-mail: dildorasultonova196@gmail.com

Tel: 91-986-21-51

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Alisher Navoiy ijodida qo'llanilgan mushtarak san'atlar, ularning turlari va qo'llanilgan o'rnlari, shuningdek, mushtarak san'atlarda ijod qilgan ijodkor va shoirlar haqida bo'lib, ular qaysi badiiy san'atdan qaysi g'azalida foydalangan va ularning tahlillari qandayligi ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari g'azallaridan namunalar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: badiiy san'atlar, lavziy san'atlar, mutobaqa, muroat un-nazir, ta'dil, tansiq us-sifot, iqtibos, aqd, tazmin, baroati istehlol, husni taxallus, husni matla', husni maqta'.

ANNOTATION

This article is devoted specifically to the translation mechanisms of stylistic devices in the ghazals of Alisher Navoi. We have displayed by this article the translation mechanisms of classic literature including artistic art involve the study of the vocabulary of the ghazal, analysis of the ghazal, which a scholar of Alisher Navoi studies and a good knowledge of source and target languages.

Keywords: *ghazal, artistic art, stylistic devices, science of bade, verse, byte, verbal arts, spiritual arts, common arts.*

Mushtarak san'atlar ham lafzga, ham ma'noga tegishli bo'lgan san'atlar bo'lib, ular tarkibiga mutobaqa, muroat un-nazir, ta'dil, tansiq us-sifot, iqtibos, aqd, tazmin, baroati istehlol, husni taxallus, husni matla', husni maqta' va boshqa sheriylar san'atlarni kiritgan. Shuningdek bu guruhg'a tajnis san'atini ham kiritishimiz



mumkin. **Tajnis** (ar. - jinsdosh, hamjins) bayt tarkibida shaklan bir xil yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlarni qo‘llashga asoslangan she’riy san’atdir. Tajnisning bir necha turlari haqida ilmi badi’ga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, Umar Roduyoniyning “Tarjumon ul-balogs” asarida tajnisning 4 turi (tajnisi mutlaq, tajnisi murakkab, tajnisi zoid, tajnisi muraddad), Rashididdin Vatvotning “Hadoyiq us-sehr”, Shams Qays Roziyuning “Al-Mo‘jam” va Shayx Ahmad Taroziyuning “Funun ul-balogs” asarlarida 7 turi (tajnisi torn, tajnisi noqis, tajnisi zoid, tajnisi mukarrar, tajnisi murakkab, tajnisi mutar-raf, tajnisi xat) keltirib o’tilgan¹. Navoiy ijodida ham tajnisning quyidagi bir necha turlarini uchratishimiz mumkin:

1) tajnisi tom yoki mutlaq tajnis – to‘liq shakldoshlikka (harflar tarkibi jihatidan) asoslangan:

**Sahnida yuz gul chiqorib bir yig‘och,
Har gulining atri borib bir yig‘och².**

Baytning bиринчи misrasida “yig‘och” so‘zi daraxt, yog‘och ma’nosida, ikkinchi misrasida masofa o‘lchovi (taxminan 8 kmdan ortiqroq) ma’nosida kelgan.

2) tajnisi muzori’ - shaklan yaqin so‘zlarning bir-biridan bir yoki ikki undosh tovush bilan farqlanishi natijasida vujudga keluvchi tajnis:

**Shoh olinda hamisha hozir o‘lsam,
Bu ish kayfiyatidin nozir o‘lsam³**

3) tajnisi xat - arab yozuvidagi so‘zlarning faqat nuqtalar orqali farqlanishiga asoslangan tajnis:

**Barcha xo‘blarning qad-u ruxsor-u xattu xoli bor,
Lek ulkim bizni behol aylar o‘zga holi bor⁴.**

Shunday badiiy san’atlardan yana biri **tazod** (ar. - zid qo‘yish, qarshilantirish) san’atdir. Bu san’at bayt tarkibida ma’no jihatdan qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlardan foydalanishni anglatadi. Tazod san’ati ilmi bade’ga oid manbalarda turlicha atalgan. Masalan, Umar Roduyoniyning “Tarjumon ul-balogs”, Toj al-Halaviyning “Daqoyiq ush-she’r”, Sharafiddin Romiyuning “Haqoyiq ul-hadoyiq” asarlarida mutazod, Rashididdin Vatvotning “Hadoyiq us-sehr”, Shayx Ahmad Taroziyuning “Funun ul-balogs”, Husayn Voiz Koshifiyuning “Badoyi’ ul-afkor” asarlarida al-mutazod, Shams Qays Roziyuning “Al-Mo‘jam”, Hamididdin Najotiyning “Risolai

¹ Sirojiddinov.Sh, Yusupova.D, Davlatov.O. Navoiyshunoslik. Toshkent: “Tamaddun”, 2018.

² A. Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonidan.

³ A. Navoiy “Farhod va Shirin” dostonidan.

⁴ A. Navoiy “G‘aroyib us-sig‘ar”, 176-g‘azal



feruziy” asarlarida mutobiqa, Shams Faxriy Isfahoniyning “Me’yori jamoliy” asarida esa al-ittizod istilohlari bilan keltirilgan⁵. Bu san’at haqida to‘liqroq ma’lumot Atoulloh Husayniyning “Badoyi’ us-sanoyi” asarida keltirilgan bo‘lib, bu san’atni tiboq, tatbiq, tazod va takofu deb ham atalishini aytib o‘tgan. Shuningdek, shoir o‘z asarida ushbu atamalarning lug‘aviy ma’nosini hamda izohini berib o‘tgan. Bundan tashqari u bir misrada barcha so‘zlarning o‘zaro qarama-qarshi ma’noda kelganligi bilan bog‘liq misolni keltirib, uni Alisher Navoiydan eshitganligini aytib o‘tadi: “Hazrati xudovandgor (Alisher Navoiy)din eshittimkim, Xoja Salmon bir misra aytiptur, aning birinchi yarminda uch nimani zikr etiptur va ikkinchi yarminda ul uch nimaning muqobili bo‘lg‘an yana uch nimani zikr qiliptur va ul misrada o‘shul olti mutaqobil nimadin o‘zga hech lafz yo‘qtur. Aning ikkinchi misrain o‘shul tariqada aytmaptur. Ul misra budur:

Hushyor darun raftu berun omad mast⁶.

Ma’nosi: Hushyor ichkariga kirdi, mast tashqariga chiqdi. Baytning ushbu misrasida barcha so‘zlarning qarama-qarshi qo‘llanilganligini ya’ni uch juft zid ma’noli so‘zlarni ko‘rishimiz mumkin: hushyor, mast; ichkari, tashqari; kirmoq, chiqmoq.

G‘azallarni ma’no jihatdan boyitadigan mushtarak san’atlardan yana biri **baroati istehlol** (ar. baroat - bir sohada ustunlik, istehlol - yangi oyni ko‘rish talabi) san’atidir. Asarning qaysi mavzuda ekanligini anglatuvchi badiiy san’at bo‘lib, bunda kitobxon asarning debochasi, bob yoki fasllar boshida kiritilgan so‘z va fikrlardan asarning mazmuni, mavzusi hamda mundarijasini bilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ko‘pgina adabiyotlarda baroat - mahorat, fasohat, ravshanlik, fazilat, ustalik hamda fazl-u hunarda yetuklik sifatida talqin qilinsa, istehlol yangi oyni ko‘rish talabi ma’nosini anglatadi.

Alisher Navoiy g‘azaliyotida mushtarak san’atlardan tanosub yoki muroat un-nazir (baytda ma’no jihatdan bir-biriga yaqin va o‘zaro mutanosib so‘zlarni qo‘llashga asoslangan badiiy san’at), ishtiyoq (bir o‘zakdan hosil bo‘ladigan bir nechta so‘zni bir bayt yoki jumlada qo‘llashga asoslanadigan), siyoqat ul-a’dod yoki ta’dil (she’rda sodda otlarni muayyan tartib bilan ketma-ket keltirishga asoslangan) san’atlar ham mahorat bilan qo‘llanilgan bo‘lib, ular muallif g‘oyaviy niyatini ochib berishda muhim poetik unsurlar sifatida alohida ahamiyatga egadir.

⁵ <https://fayllar.org/5-mavzu-navoiy-ijodida-badiiy-sanatlar.html>

⁶ <https://fayllar.org/5-mavzu-navoiy-ijodida-badiiy-sanatlar.html>



Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. A. Navoiy “G‘aroyib us-sig‘ar”, “Hayrat ul-abror”, “farhod va Shirin” dostonlari.
2. Is’hoqov Y, “So‘z san’ati so‘zligi”. Toshkent “O‘zbekiston” 2014-y
3. Mardonova X. A. Navoiy g‘azallarida ma’naviy san’atlarning qo‘llanishi.— 2021. — № 11 (353). — S. 262-264.
4. Rustamov A., A. Navoiyning badiiy mahorati. Toshkent: “Adabiyot va san’at”, 1979-y. 69-bet
5. Sirojiddinov.Sh, Yusupova.D, Davlatov.O. Navoiyshunoslik.Toshkent: “Tamaddun”, 2018-y.



VODOROD YOQILG‘ISINI OLISHDAGI YUQORI TEMPERATURALI QUYOSH QURULMALARIGA BOG‘LANGAN KATALIZATORLARNI TADQIQ ETISH

Buxoro davlat tibbiyot instituti

“Biotibbiyot muhandisligi, biofizika va informatika” kafedrasи

Assistenti: **Temirov Og’abek Farhod o’g’li**

H₂ - eng ekologik toza motor yoqilg‘isi turi, shuning uchun uning istiqbollari aniq Avstraliyada, Viktoriya shtatidagi jigarrang ko‘mirda, keyinchalik vodorodni chiqarish, aniqrog‘i oltingugurt, simob va karbonat angidridni (CO₂) olib tashlash bilan ko‘mirni gazlashtirish texnologiyasi ishlab chiqilmoqda.

Norvegiyada Nel Hydrogen suvni atmosferaga chiqariladigan vodorod va kislородга ajratish uchun yuqori haroratliz elektroliz uchun qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish texnologiyasini ishlab chiqmoqda.

Kawasaki Heavy Industries suyuq vodorodni (LH₂) tashish uchun dengizda vodorod tankerini ishlab chiqmoqda[1].

Vodorod (H) Yerdagi eng keng tarqalgan elementdir, ammo normal sharoitda u vodorod H yoki vodorod gazi (H₂) shaklida bo‘lmaydi.

O‘zining xususiyatlariga ko‘ra, u boshqa organik birikmalar bilan oson reaksiyaga kirishadi, masalan, suv (H₂O).

Vodorod va havodan suv hosil bo‘lish reaksiyasi paytida elektr energiyasi sifatida ishlatilishi mumkin bo‘lgan energiya chiqariladi.

Ushbu reaksiyani sanoat energiya ishlab chiqarish uchun foydali qilish uchun, masalan, suvdan atomlarni kislород va vodorodga elektroliz orqali ajratish orqali vodorod ishlab chiqarish kerak. Vodorodni ishlab chiqarishning turli usullari mavjud bo‘lib, ular ekologik jihatdan ham, narx jihatidan ham juda farq qiladi.

Ekologik tozalik vodorod ishlab chiqarishning muhim mezoni hisoblanadi. Vodorod ishlab chiqarish jarayonida qancha ko‘p uglerod oksidi ajralib chiqsa, u kamroq ekologik toza hisoblanadi.[5]

Oddiylik uchun turli texnologiyalar tomonidan ishlab chiqarilgan har bir "navbat" odatda rang bilan belgilanadi, garchi u to‘g‘riroq bo‘lsa - uglerod izi bilan. Vodorodning kislород bilan o‘zaro ta’siri reaksiyasi issiqlik chiqishi bilan sodir bo‘ladi. Agar standart sharoitda 1 mol H₂ (2 g) va 0,5 mol O₂ (16 g) olib, reaksiyani qo‘zg‘atsak, tenglama bo‘yicha.



reaksiya tugagandan so‘ng 285,8 kJ/mol energiya chiqishi bilan 1 mol H₂O (18 g) hosil bo‘ladi.

Taqqoslash uchun: asetilenning yonish issiqligi 1300 kJ/mol, propan 2200 kJ/mol. 1 m³ vodorodning og‘irligi 89,8 g (44,9 mol), shuning uchun 1 m³ vodorod ishlab chiqarish uchun 12832,4 kJ energiya sarflanadi.

1 kVt = 3600 kJ, shuning uchun biz 3,56 kVt soat elektr energiyasini olamiz. Vodorod yoqilg‘isiga o‘tishning maqsadga muvofiqligini 1 kVt soat elektr energiyasi uchun mavjud tarifni va, masalan, 1 m³ gaz narxini yoki boshqa energiya tashuvchining narxini solishtirish orqali baholash mumkin.

Vodorod yondirilganda toza suv olinadi. Ya’ni, vodorod yoqilg‘isi gaz yoki benzindan farqli o‘laroq, atrof-muhitga zarar etkazmasdan ishlab chiqariladi.

Vodorodni olish uchun kimyoviy usullar, jumladan, elektr toki bilan suvning parchalanish reaktsiyalari qo‘llaniladi.[6]

Vodorodni olishning asosiy sanoat usuli - bu tabiiy gazning bir qismi bo‘lgan metan suvi bilan reaktsiya. Yuqori haroratda amalga oshiriladi:



Tuzlarning suvdagi eritmalarini elektroliz qilish:



Taxminan 1000°C haroratda issiq koks ustidan suv bug‘ini o‘tkazish:



Tabiiy gazdan.

Bug‘ konversiyasi:



Kislород katalitik oksidlanishi:




Neftni qayta ishlash jarayonida uglevodorodlarni kreking va isloh qilish.

Suyultirilgan kislotalarning metallarga ta’siri. Bunday reaktsiyani amalga oshirish uchun ko‘pincha sink va xlorid kislota ishlatiladi:



Kaltsiyning suv bilan o‘zaro ta’siri:



Gidridlarning gidrolizi:



Ishqorlarning rux yoki alyuminiyga ta’siri:



Elektrolizdan foydalanish. Ishqorlar yoki kislotalarning suvli eritmalarini elektroliz qilish jarayonida katodda vodorod ajralib chiqadi, masalan:



Vodorod ishlab chiqarish uchun bioreaktor.

Jismoniy xususiyatlar

Gazsimon vodorod 2 shaklda (modifikatsiyada) - orto- va para-vodorod shaklida bo‘lishi mumkin. Ortohidrogen molekulasida (mp -259,10 °C, bp -252,56 °C) yadro spinlari bir xil (parallel), parahidrogenda (mp -259,32 °C, t bp -252,89 °C) - aksincha yo‘naltiriladi. bir-biriga (parallelga qarshi).

Vodorodning allotropik shakllari suyuq azot haroratida faol uglerodga adsorbsiya yo‘li bilan ajratilishi mumkin. Juda past haroratlarda ortovodoro d va parahidrogen o‘rtasidagi muvozanat deyarli butunlay parahidrogen tomon siljiydi. 80 K da tomonlar nisbati taxminan 1:1 ni tashkil qiladi. Desorblangan parahidrogen xona haroratida muvozanat aralashmasi hosil bo‘lguncha qizdirilganda ortovodorodga aylanadi[2].

Katalizator bo‘lmasa, transformatsiya asta-sekin sodir bo‘ladi, bu alohida allotropik shakllarning xususiyatlarini o‘rganish imkonini beradi.

Rossiyada vodorod olishdan manfaatdor asosiy tashkilotlar Rosatom va Gazprom hisoblanadi. Atom elektr stantsiyalari ortiqcha energiyani vodorod shaklida saqlashi va undan keyin foydalanishi kerak. Va kon kompaniyasi tabiiy gazni vodorodga qayta ishlashni xohlaydi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish joylarida, masalan, yoqilg‘i quyish shoxobchalarida tegishli qurilmalarga ega.

Vodorodni tashish muammosini hal qilish uchun uni spirtlarga - metanolga, dimetil efirga aylantirish mumkin bo‘lib, ulardan vodorod olish uchun, ular aytganidek, elektr stantsiyalarida keyingi foydalanish uchun "talab bo‘yicha". Bu vodorod o‘z ichiga olgan komponentlarni olish kimyosi va u juda yaxshi o‘zlashtirilgan.



Parametr	H_2 (gaz)	H_2 (suyuq)	Propan	Benzin
Ish bosimi (MPa)	20	0.1	0.5	0.1
Kerakli og`irlilik (kg)	40,000	30,000	40,000	40,000
Yetkazib berilgan og`irlilik (kg)	400	2,100	20,000	14,000
Yetkazib beriladigan yoqilg`ining minimal isitish qiymati (MJ)	120	120	46.3	44.8
Bir yuk mashinasini uchun energiyaning minimal isitish qiymati (GJ)	48	252	926	1,164.8
Dizel yoqilg`isi iste'mol qilinganda (kg)	79.6	57.9	60	54
Dizelning minimal isitish qiymati (GJ)	3.38	2.46	2.55	2.30
Benzinga nisbatan sarflanadigan a	35.77	4.96	1.40	1.00

1-jadval.

Vodorodni propan va benzin bilan avtomobil transportida energiya sarfini taqqoslash.

Umuman olganda, vodorodning ekologik toza yoqilg`i ekanligi haqidagi bayonotlar to‘liq adolatli emas. Maktab kimyo kursidan biz vodorodni yoqishdan keyin suv olinishini eslaymiz. Ammo u azot miqdori yuqori bo‘lgan havoda yonadi va kislorod va azotning yuqori haroratda reaktsiyasi natijasida biz benzinni yoqish paytidagi kabi zaharli azot oksidlarini olamiz, faqat kichikroq hajmda. Aslida, vodorodning bunga aloqasi yo‘q.[8]

Har qanday yuqori haroratli yonish havodagi kislorod va azotning oksidlar hosil bo‘lishi bilan o‘zaro ta’sirining reaktsiyasini keltirib chiqaradi. Shu sababli, har qanday yoqilg`ini yoqish orqali elektr energiyasini ishlab chiqarish eng ekologik toza usul emas. Va bundan ham ko‘proq uglevodorod, atmosferaga karbonat angidrid chiqindilari chiqishi bilan yonadi. Atmosferaga chiqindilar bilan bog‘liq



muammolarni hal qilish uchun siz yoqilg‘ini yoqishni to‘xtatishingiz va uning iste’mol darajasini xona haroratiga kamaytirishingiz kerak. Yoqilg‘i xujayralari bunga yordam beradi. Yoqilg‘i xujayralarida vodoroddan foydalanish eng ekologik toza hisoblanadi. Turli xil yonilg‘i xujayralari vodorodni turli haroratlarda ishlataladi va uning tozaligi haqida ko‘proq yoki kamroq tanlanishi mumkin. Past haroratli yonilg‘i xujayralari sof vodorodda ishlaydi, yuqori haroratlilari esa sintez gazidan to‘liq qoniqadi. Yoqilg‘i xujayrasi - bu vodorodning kimyoviy energiyasini elektr energiyasiga (elektrolizning teskari jarayoni) juda yuqori samaradorlik bilan aylantiradigan elektrokimyoviy qurilma.

Xitoy va Germaniya olimlari bilan birgalikda Tomsk politexnika universiteti ishlab chiquvchilari vodorod ishlab chiqarish uchun arzon katalizator yaratdilar. Endi qimmatbaho platina vodorod ishlab chiqarishda ishlatiladi. Yangi katalizatorni inkjet bosib chiqarish yo‘li bilan arzon ishlab chiqarish mumkin, deb ta’kidlaydi Rossiya universiteti matbuot xizmati.

Yangi katalizator molibden disulfidi va qaytarilgan grafen oksidi plitalaridan iborat. Bu kelajak yoqilg‘isi bo‘lmish vodorod ishlab chiqarishni arzon va ekologik toza qiladi. TERS-Team ilmiy guruhidagi ishlovchi rossiyalik olimlar tarkibida molibden disulfidining nanoplateletlari va qaytarilgan grafen oksidi zarralari bo‘lgan maxsus siyoh yasadi[3]. Keyin siyoh inkjet bosib chiqarish yordamida mis plastinka elektrodiga qo‘llanildi.

Yashil vodorodni yanada samarali ishlab chiqarish uchun katalizator.

Tadqiqotchilar yashil vodorod ishlab chiqarish samaradorligini maksimal darajada oshiradigan yangi suvni ajratish jarayoni va materialini ishlab chiqdilar, bu uni an’anaviy, uglerod chiqaradigan vodorod ishlab chiqarish o‘rniga qayta tiklanadigan energiyani saqlash uchun yashil vodorodga aylantirmoqchi bo‘lgan sanoat hamkorlari uchun arzon va qulay variantga aylantirdi tabiiy gazdan[43].

Vodorod - ayniqsa uglerodsiz yashil vodorod - quyosh va shamol kabi qayta tiklanadigan energiya uchun istiqbolli toza energiya tashuvchisi va saqlash varianti sifatida paydo bo‘ldi. U atmosferaga uglerod chiqindilarini qo‘shmaydi, lekin hozirda uni yaratish qimmat va murakkab.

Yashil vodorod ishlab chiqarishning bir usuli - elektrokimyoviy suvning bo‘linishi. Bu jarayon vodorod va kislorodni olish uchun katalizatorlar (reaktsiyani kuchaytiruvchi moddalar) ishtirokida suv orqali elektr energiyasini o‘tkazishni o‘z ichiga oladi.[7]

Georgia Tech tadqiqot guruhi elektrokatalizator uchun gibril materiallardan foydalangan holda yashil vodorodni arzonroq va bardoshli qilishga umid qilmoqda.



Bugungi kunda jarayon miqyosda elektroliz orqali vodorod ishlab chiqarish uchun afzal qilingan katalizatorlar bo‘lgan platina va iridiy kabi qimmatbaho qimmatbaho metall komponentlarga tayanadi. Ushbu elementlar qimmat va kamdan-kam uchraydi, bu esa vodorodga asoslangan energiya uchun gazni almashtirish harakatini to‘xtatdi[4]. Wood Mackenzie bozor tadqiqot firmasi ma’lumotlariga ko‘ra, aslida yashil vodorod 2020- yilda yillik vodorod ishlab chiqarishning 1% dan kamrog‘ini tashkil etdi, bu ko‘p jihatdan bu xarajatlar tufayli. Jinho Park, GTRI tadqiqotchisi va tadqiqotning etakchi tadqiqotchisi, ushbu tadqiqot yashil vodorod ishlab chiqarishda ishlatiladigan asbob-uskunalar narxini pasaytirishga yordam berishi mumkinligini aytdi. Gibrid katalizatorlarni ishlab chiqish bilan bir qatorda, tadqiqotchilar katalizatorlarning shakli va metallarning o‘zaro ta’sirini nazorat qilish qobiliyatini ham aniq sozlashdi. Asosiy ustuvorliklar tizimda katalizatorдан foydalanishni qisqartirish va shu bilan birga uning chidamlilagini oshirish edi, chunki katalizator uskuna narxining asosiy qismini tashkil qiladi.

“Biz bu katalizatorning unumdorligini pasaytirmasdan uzoq vaqt foydalanmoqchimiz”, dedi u. “Bizning tadqiqotimiz nafaqat yangi katalizatorni yaratishga, balki uning ortidagi reaksiya mexanikasini ham tushunishga qaratilgan. Bizning sa’y-harakatlarimiz katalizatorlarda suvning bo‘linish reaktsiyasini fundamental tushunishga yordam beradi va boshqa tadqiqotchilarga muhim tushunchalar beradi deb ishonamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

[1]. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 09.04. 2021 г. № ПП-5063 «О мерах по развитию возобновляемой и водородной энергетики в Республике Узбекистан». <https://lex.uz/docs/5362035>.

[2]. Акбаров Р.Ю. Оптимальные углы наклона солнечных установок для Паркентского района (Узбекистан). Материалы международной научной конференции “Новые материалы и гелиотехнологии” 20-21 мая 2021 года. г. Паркент, Узбекистан. С. 186-190.

[3]. Martino, M.; Ruocco, C.; Meloni, E.; Pullumbi, P.; Palma, V. Main Hydrogen Production Processes: An Overview. Catalysts 2021, 11, 547. <https://doi.org/10.3390/catal11050547>.

[4]. Yamaguchi M., Horiguchi M., Nakanori T. «Development of Large-Scale Water Electrolyzer Using Solid Polymer Electrolyte in WE-NET» Proceedings of the 21 th World Hydrogen Energy Conference (Beijing, China, June 12-15, 2000), vol. 1. P.274-281.



[5]. Lymberopoulos N. «Hydrogen production from renewables» Report on RES2H2.

[6]. Григорьев С.А., Халиуллин М.М., Кулешов Н.В., Фатеев В.Н. Электролиз воды в системе с твердым полимерным электролитом/ Электрохимия, т. 37, № 8, 2001. – С. 953-957.

[7]. Григорьев С.А., Халиуллин М.М., Кулешов Н.В., Фатеев В.Н. Электролиз воды в системе с твердым полимерным электролитом/ Электрохимия, т. 37, № 8, 2001. – С. 953-957.

[8]. Grigoriev S.A., Millet P., Fateev V.N. «Evaluation of carbon-supported Pt and Pd nanoparticles for the hydrogen evolution reaction in PEM water electrolyzers» // Journal of Power Sources, vol. 177, issue 2, March 2008. P. 281-285.



TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	SHAXSGA YO'NALTILGAN TA'LIM ASOSIDA BOLA SHAXSINI SHAKILLANTIRISH	3
2	KOMPYUTER TARMOQLARIGA BO'LADIGAN HUJUMLARNI ANIQLASH VA HUJUMLARNI BARTARAF ETISH ALGORITMINI ISHLAB CHIQISH	6
3	DVIGATELLARNING UMUMIY TUZILISHI	14
4	BULUTLI TEKNOLOGIYALAR	17
5	STRATEGIES FOR THE DEVELOPMENT OF SEWING FIELD IN VOCATIONAL SCHOOL EDUCATION	20
6	TIKUVCHILIK KORXONALARIDA SIFAT NAZORATI	26
7	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI YARATISH MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR	33
8	ILK QADAM O'QUV DASTURIDAGI PEDAGOGIK TALABLARNI JORIY ETISHNING TIZIMLI MEHANIZMINI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHG'ULOTLARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR DAN FOYDALANISH	39
9	ASSESSMENT FORMS AND CRITERIA	42
10	IMPROVING LISTENING SKILLS.	47
11	TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN SPECIAL AREAS	53
12	INGLIZ TILI DARSLARIDA TIL ALMASHTIRISH: IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI	58
13	APPLICATION OF SURGICAL PRACTICE OF ORGAN-PRESERVING RECONSTRUCTIVE SURGERY IN SEVERE PROLAPSE OF FEMALE GENITAL ORGANS	62
14	ХИРУРГИЧЕСКОЕ ЛЕЧЕНИЕ ПУЗЫРНО-ВЛАГАЛИЩНЫХ СВИЩЕЙ	66
15	ОВАРИЭКТОМИЯДАН КЕЙИНГИ СИНДРОМНИ ДАВОЛАЩДА УРИНБОСАР ГОРМОНАЛ ТЕРАПИЯНИНГ САМАРАДОРЛИГИ	73
16	IRES	78
17	ENTEROVIRUSLAR VA ANTIVIRUS	87
18	ENTEROVIRUSLAR KELTIRIB CHIQARADIGAN KASALLIKLAR	97
19	SOCHMA USULDA EKILGANPIYOZNING FENOLOGIK VA HOSILDORLIK KO`RSATKICHLAR (Amudaryo tumanida olib borildi)	108
20	RAQAMLI ZAMON VA MILLIY ETNOMADANIYATNING UYG'UNLIGI	111



21	FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARIDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI	115
22	YANGI O`ZBEKISTON BARQAROR TARAQQIYOT GAROVI SIFATIDA	120
23	O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QONUNLARI IJROSI USTIDAN JAMOATCHILIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISH	124
24	PERSONAL BOSHQARISHDA LOYIHAVIY USULLARDAN FOYDALANISHNING AVZALLIKLARI	129
25	MILLIY TARBIYANING ETNOMADANIY XUSUSIYATLARI	132
26	DARVESH HUKMDOR YOHUD AMIR SHOHMUROD	136
27	O`ZBEK XALQINING OTASHQALB FARZANDI	141
28	IJTIMOIY TARMOQLAR VA XAVFLAR	148
29	KIBERJINOYATCHILIK	154
30	SOCIAL NETWORKS AND RISKS	158
31	THREATS AND DANGERS IN SOCIAL MEDIA.	165
32	PROBLEM-SOLVING IN EDUCATION: TEACHING STUDENTS TO THINK LIKE INNOVATORS	173
33	ПРИМЕНЕНИЯ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ ВОЕННОГО НАЗНАЧЕНИЯ В ОРГАНАХ ВОЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ	178
34	TEXNIK VA TEKNOLOGIK JARAYONLARDA AXBOROT XAVFSIZLIGI	184
35	DIFFERENTIATED APPROACH IN TEACHING PHYSICS	187
36	ВЫБОР ТИПА МЕХАТРОННОЙ ЧАСТИ ЧПУ СТАНКА И ЕГО ОБОСНОВАНИЕ	191
37	YAKKAKURASH SPORT TURLARIDA JISMONIY QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION USLUBLARI VA ULARNI QO`LLANILISHI	195
38	NEFT VA GAZ SOHASIDA BOSHQARUV TIZIMI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI	201
39	NAVOIY IJODIDA MUSHTARAK SAN`ATLARNING IFODALANISHI	205
40	VODOROD YOQILG`ISINI OLISHDAGI YUQORI TEMPERATURALI QUYOSH QURULMALARIGA BOG`LANGAN KATALIZATORLARNI TADQIQ ETISH	209

лучшие интеллектуальные исследования

Внимание! — ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ статьи и номера в юридическом, медицинском, социальном, научном журнале, информация в классах, права на информацию и правильные органы несут ответственность за точность данных органов.

Главный редактор:

В. Л. Семёнов

Помощник редактора:

М. А. Борисов

Редактор дизайна:

З. Ш. Халиков

— ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ || всемирный научно-методический журнал,
2024- годы. — город Кокан